

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03.30.12.2019.Fil.60.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI FAN DOKTORI (DSc)
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI BIR MARTALIK KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

TURNIYAZOV BEHZOD NIGMATOVICH

KAUZATIV QURILMALAR SINTAKTIK DERIVATSIYASI

10.00.11 –Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi.

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.1.DSc/Fil177 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Andijon davlat universiteti veb-sayti (www.adu.uz) hamda «ZiyoNET» axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Sayfullayeva Ra'no Raufovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rustamov Dilshodbek Abduvaxidovich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hakimov Muhammad Xo'jaxonovich
filologiya fanlari doktori, professor

Usmonova Huriniso Sharapovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi filologiya fanlari bo'yicha ilmiy daraja beruvchi PhD03.30.2019.Fil.60.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi fan doktori (DSc) ilmiy darajasini beruvchi bir martalik Ilmiy kengashning 30 iyun 2022-yil soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shoh ko'chasi, 5-uy. Tel.: (99874) 223-88-14; faks: (99874) 223-88-30; e-mail: agsu_info@edu.uz).

123 Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shoh ko'chasi, 5-uy. Tel.: (99874) 223-88-14.

Dissertatsiya avtoreferati 2022-yil «18» 06 kuni tarqatildi.
(2022-yil « » dagi raqamli reestr bayonnomasi).



Sh.H.Shaxabitdinova
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor.

F.F.Usmanov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.f.f.d. (PhD)

M.I.Umarxodjayev
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filol. f.d., professor.

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Nutq muammolari tilning real qo'llanilishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bunda inson omili muhim o'rin tutadi. Tilning murakkab sistemani tashkil etishi ham inson tafakkuri bilan bevosita aloqadordir. Tilga oid masalalar talqiniga ana shu jihatdan qaraydigan bo'lsak, hal etilishi lozim bo'lgan g'oyat muhim muammolar turganining guvohi bo'lamiz. Masalan, nutq lingvistikasi talqini yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar bugungi kunda yanada dolzarblik kasb eta boshladi. Bundan tashqari, tilning ichki sistemasi qonuniyatlari bilan bog'liq bo'lgan ba'zi masalalar ham borki, ular muammoli edi va hozirgi kunda ham muammoligicha qolmoqda. Ana shunday masalalardan biri *kauzativlik* hodisasi bo'lib, ushbu tushuncha haqida tadqiqotimizda tilning ichki sistemasi qonuniyatlari doirasida ham, nutq lingvistikasi masalasi bobida ham ilmiy-nazariy qarashlar bayon etilmoqda.

Dunyo tilshunosligida kauzativlik hodisasiga bag'ishlangan ko'pgina ilmiy ishlar mavjud bo'lsa-da, ularning birortasi mazkur tushunchaning derivatsion xususiyatlarini yoritib beruvchi monografik tadqiqot mavzusini qamrab olmagan. Bu haqda faqat rus tilshunosi V.S.Xrakovskiyning maqolasi borligini aytishimiz mumkin. Taqdim etilayotgan dissertatsiya esa aynan derivatsion jarayon bilan bog'liq bo'lgan kauzativlik ifodasini nazariy jihatdan yorituvchi fundamental tadqiqot sifatida shakllandi. Bundan tashqari, kauzativlikning o'zbek tilshunosligida derivativ jihatdan ilk marotaba o'rganilishi tilshunosligimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilshunosligida kauzativlik hodisasiga bag'ishlangan biror bir monografik ishning mavjudligi kuzatilmadi. Ammo R.Rasulovning «O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari» nomli monografiyasida biz uchun zarur bo'lgan ayrim qimmatli ma'lumotlarning borligini ko'rishimiz mumkin. Shu bois Prezidentimizning: «Fundamental tadqiqotlar natijasida to'plangan yangi bilimlar olimlarning amaliy va innovatsion ishlanmalarida o'z ifodasini topmoqda»¹,—degan so'zlariga tayanib, bu xususda ilmiy mulohazalarimizni bayon etmoqdamiz. To'g'ri, kauzativlikning ichki mexanizmlaridan hisoblanuvchi buyruq gap, sabab ergash gapli qo'shma gap, fe'lning orttirma nisbati, buyruq-istak mayli kategoriyalari o'zbek tilshunosligida keng tadqiq etilgan. Biroq bu materiallar kauzativlik nuqtayi nazaridan yoritilmagan. Shu bois mazkur tushunchalarni kauzativlik jihatdan o'rganish zarurati tug'ildi hamda lingvistikaning ushbu sohasi *kauzatologiya* deb nomlandi. Biz kauzativlik hodisasini o'rganuvchi ta'limot degan tushunchani izohlashda «*logos*» terminini qo'llamoqdamiz. Zotan, kauzativlik leksik, semantik, morfologik, sintaktik jihatdan tadqiq qilinar ekan, u lingvistikada o'ziga xos yo'nalish maqomiga erishgan deb hisoblaymiz. Kauzatologiyaning tekshiruv obyekti esa faqatgina sabab ergash gapning qanday shakllanishi yoki fe'lning orttirma nisbati shakli deb nimaga aytilishini izohlash bilan chegaralanib qolmaydi. Bunda kauzativlikni voqelantirayotgan har bir elementning tildagi va nutqdagi

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2017, 170-b.

o'zni, ularning semantik aspekti, kauzator, kauzant va konsekvent (xulosa) tushunchalarining munosabatlari derivativ jihatdan tadqiq qilinadi. Zero, tilning ichki sistemasi qonuniyatlari ham, nutq lingvistikasi muammolari ham derivatsiya bilan bog'lanadi. Bu esa tilshunosligimiz kun tartibida turgan, o'rganilishi muhim va zarur bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son «Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi farmonlari hamda 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2018-yil 5-iyundagi PQ-2775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida», 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son «Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlarda aks etgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi¹. Kauzativlik muammolari talqini doirasida dunyo mamlakatlarining, jumladan, «Manas» nomli Qirg'iz-Turk universiteti (Qirg'iziston), Tilshunoslik instituti (Qozog'iston), Moskva davlat pedagogika universiteti, Kuban davlat universiteti, Perm universiteti (Rossiya), le Collège de France, Université Montpellier (Fransiya), Monreal universiteti (Kanada), Santa Cruz (AQSH), Goethe-Universität Frankfurt am Main (Germaniya), Shensi chet tillar instituti (Xitoy)da ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va olib borilmoqda.

Dissertatsiya mavzusi yo'nalishida quyidagi ilmiy natijalar olingan: kauzativ fe'llar konstruksiyasi o'rganilgan («Manas» nomli Qirg'iz-Turk universiteti, Qirg'iziston); kauzativlikning ifodalanishi yo'llari tadqiq etilgan (Tilshunoslik instituti, Qozog'iston), kauzativlikning funksional-semantik tahlili amalga oshirilgan, kauzativ fe'llarning valentlik darajasi tekshirilgan, kauzativlik morfologik jihatdan yoritilgan, kauzativlik tipologik niqtayi nazardan o'rganilgan

¹ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi [google.scholar.com](https://www.google.com/scholar); www.bu.edu; <https://studfile.net/>; <https://vk.com/topic>; <https://moluch.ru/conf/phil/archive/>; <https://www.dissercat.com/>; <https://cyberleninka.ru/>; www.education.ua/universities va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

(Moskva davlat pedagogika universiteti, Kuban davlat universiteti, Perm universiteti, Rossiya); kauzativlik qiyosiy jihatdan tahlil etilgan (le Collège de France, Université Montpellier, Fransiya); kauzativlik neyrolingvistik programmalashtirish tamoyillari asosida tekshirilgan (Santa Cruz, AQSH); kauzativlik epistemik mantiq qonuniyatiga bog‘liq ravishda o‘rganilgan (Goethe-Universität Frankfurt am Main, Germaniya), kauzativ qurilmalar xitoy va rus tillari materiallari asosida tadqiq etilgan (Shensi chet tillar instituti, Xitoy).

Dunyo tilshunosligida kauzativlikning ifoda etishi yuzasidan qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: kauzatsiyaning emotivlik bilan bog‘liqligi; kauzativlikning klauzada, qo‘shma gapda shakllanishi masalalari; kauzativlikda aktantlar sonining o‘sishi; kauzallikning ifoda etish usullari; analitik kauzatsiyaning shakllanishi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kauzatologiya sohasi (Kauzativlik muammolarini tekshiruvchi sohani biz shu nom bilan atamoqdamiz) tarixiy jihatdan shakllanib, tilshunoslik fanida o‘rganilguniga qadar ancha yo‘lni bosib o‘tdi. Kauzatsiya sabab va oqibat tushunchalari bilan bog‘lanib, dastlab falsafiy jihatdan tadqiq etildi. Buning ildizlari qadimgi Hindistonda shakllana boshladi¹. Bundan so‘ng sababiyat mohiyatini izohlash xususidagi qarashlar Platonning mazkur hodisa haqidagi g‘oyalarini rivojlantirgan Arastu tadqiqotlarida ham o‘z ifodasini topadi². Sharqda Abu Ali ibn Sino³, Abu Nasr Forobiy⁴ kabi ustozlar o‘z asarlarida sababiyat xususidagi fikr va mulohazalarini aytib o‘tadilar. Mazkur kategoriya haqida yevropalik mumtoz faylasuflardan F.Bekon⁵, D.Yum⁶, G.Frege⁷ singari olimlar ham o‘z mushohadalarini batafsil bayon etib o‘tdilar. Sabab va oqibat munosabatlari talqini tilshunoslarda til falsafasiga asos solgan atoqli nemis mutafakkiri V.fon Gumboldt ta‘limoti orqali qiziqish uyg‘ota boshladi⁸. Grammatikada sababiyat haqidagi dastlabki mulohazalar rus tilshunoslari N.I.Grech⁹, A.X.Vostokov¹⁰, I.I.Davidov¹¹, F.I.Buslayevlarning¹² tadqiqotlarida ifodalandi.Zamonaviy tilshunosligimizda N.P.Dushina¹³, I.A.Shoroxova¹⁴, E.Y.Gordon¹⁵, A.M.Dlugosh¹, I.A.Melchuk², G.G.Silnitskiy³, Y.Y.Kordi⁴ kabi rus

¹ Лисенко В.Г. Пратитья-самутпада//Новая философская энциклопедия.Том III. -М.: Мысль, 2010.

² Аристотель. Метафизика (Перевод с греческого П.Д.Первова и В.В.Розанова).-М.:Институт философии, теологии и истории св.Фомы, 2006.

³ Ибн Сина. Избранные философские произведения. Указания и наставления. -М.: Наука, 1980.

⁴ Аль - Фараби. Логические трактаты.–Алма-ата: Наука, 1975.

⁵ Антология мировой философии в четырех томах. Том II. –М.: Мысль, 1970. -С.192.

⁶ Юм Д. Сочинения в двух томах. Том I (Перевод с английского С.И.Церетели). -М.:Мысль, 1996.

⁷ Фреге Г. Логические исследование. -Томск: Водолей, 1997.

⁸ Гумбольдт В.фон. Избранные труды по языкознанию.-М.: Прогресс, 2000.

⁹ Гречь Н.И. Практическая русская грамматика. -Санктпетербургъ: въ типографіи Императорскаго Санктпетербурскаго воспитательнаго дома, 1827.

¹⁰ Востоков А.Х. Русская грамматика. -Санктпетербург: въ Типографіи И.Глазунова, 1831.

¹¹ Давыдов И.И. Опыт общесравнительной грамматики русскаго языка. -Санктпетербургъ: изданный вторымъ отдѣленіемъ Императорской Академіи Наукъ, 1853.

¹² Буслев Ф.И. Опыт исторической грамматики русскаго языка. Часть I. Этимология. -М.: въ Университетской типографіи, 1858.

¹³ Душина Н.П. Каузативные глаголы: семантика и грамматика//Автореф. дис. канд. филол. наук.-Тамбов, 2004.

¹⁴ Шорохова И.А. Семантика каузативных глаголов в русском и польском языках//Дис. канд. филол. наук. -Челябинск, 2007.

¹⁵ Гордон Е.Я. Семантические особенности каузативных глаголов чувства в русском языке. Русский язык. Теория и методика преподавания. -Душанбе: Изд-во Таджикского ун-та, 1980.

olimlari, T.K.Abdiyev⁵, L.G.Valiyeva⁶, S.J.Tajibayeva⁷ kabi qirg'iz, tatar, qozoq tilshunoslari tomonidan kauzatalogiya sohasi tadqiqiga bag'ishlangan monografik tadqiqot ishlari amalga oshirildi.

O'zbek tilshunosligida, bizning dissertatsiyamizdan tashqari, kauzativlik mavzusini yorituvchi salmoqli ilmiy ish amalga oshirilganicha yo'q.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Til taraqqiyotining derivatsion qonuniyatlari» mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tili materiallari asosida so'z, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari, sodda gap, MSQ (murakkab sintaktik qurilma), makromatn shaklidagi mikro- va makrokauzativ qurilmalarning derivatsion hamda makrokauzatsiyaning pragmatik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kauzativ ma'no va uning tilshunoslikda o'rganilishi holatini tahlil etish va sabab va oqibat munosabatlarining klassik davrda tadqiq etilishining falsafiy asoslarini ochib berish;

kauzativ qurilmalar mazmuniy-sintaktik maqomini, kauzativ derivatsiyada pragmatik omillarni aniqlash;

morfosintaktik kauzativ derivatsiya voqelanishida affikslar va analitik vositalarning mavqeyini aniqlash hamda makrosintaktik qurilmalar kauzativli derivatsiyasi tavsifini berish;

sodda gap, murakkab sintaktik qurilma va makromatnda kauzativlikning ifodalanishini ilmiy asoslash;

kauzator, kauzant va konsekvent munosabatlari, distantli va kontaktli kauzativatsiya, kauzativatsiyada faktivlik va permissivlik holatlarini dalillash.

Tadqiqotning obykti sifatida o'zbek tilida kauzativ qurilma maqomida kela oladigan til va nutq birliklari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini semantik va sintaktik derivatsiya nazariyasi asoslari, kauzativ derivatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari, kauzativli derivatsiyada morfologik vositalarning o'rni va kauzativli qurilmalar sintaksisini o'rganishdagi muammolarning yechimi talqini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda falsafaning sababiyat nazariyasi va implikasiya usuli, shuningdek, struktur tilshunoslikning valentlik nazariyasi, sintaktik derivatsiyaning aplikativ, BI (bevosita ishtirokchilar tahlili), transformatsion tahlil usullaridan foydalanilgan.

¹Длугош А.М. Английский аналитический каузатив со служебным глаголом GET// Автореф.дис.канд.филол.наук: -Киев, 1980.

² Мельчук И.А. Курсы общей морфологии. Том II. Часть вторая: морфологические значения.-М.:Языки русской культуры, 1998.

³ Сильницкий Г.Г. Семантические и валентностные классы английских каузативных глаголов//Автореф. дис. докт. филол. наук. -Л., 1974.

⁴ Корди Е.Е. Модальные и каузативные глаголы в современном французском языке. -Л: Наука, 1988.

⁵ Абдиев Т.К. Конструкции с каузативными глаголами в киргизском языке. -Бишкек: Манас, 2009.

⁶ Валиева Л.Г. Каузальность в татарском литературном языке.-Казань: ИЯЛИ, 2015.

⁷ Тажибаева С.Ж. Способы выражения кузальных отношений в казахском языке//Автореф. дис. докт. филол. наук. -Новосибирск, 2004.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek tilidagi tobe komponenti mazmuniga ko'ra shart, to'siqsizlik, natija ifodalovchi murakkab sintaktik qurilmalar, undash ma'nosidagi gaplar, fe'ning orttirma, o'zlik nisbati, buyruq-istak mayli kategoriyalari kauzaderivatsiyaning ish mexanizmlarini tashkil etishi dalillangan;

derivatsiyaning kauzaderivatsiya turi mavjudligi aniqlanib, bu vaziyatda operator asosiy unsur vazifasini bajargani tufayli kauzativ qurilmalar tarkibiy qismlarini derivativ munosabatga olib kiruvchi vositalarning kauzaoperator maqomida kelishi isbotlangan;

analitik vositalar morfologiyaning o'rganish obyekti bo'lganligi bois analitik usuldagi kauzativlikning sintaktik emas, balki morfologik kauzatsiyaning analitik turi ekanligi isbotlangan;

makromatn qamrovida ham kauzativizatsiya vaziyati yuzaga kelishi mumkinligi va bunda faktivlik hamda permissivlik holatlari namoyon bo'lishi ochib berilgan;

kauzativlikning ifodalanishida pragmatik jihatdan paralingvistik vositalar operandlari ham derivativ munosabatga kirisha olishi, bunda kauzasemantik derivatsiya voqelanishi, mazkur jarayon mantiqiylikning hodisaviy tahlili modeliga tayanishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tilshunoslikda *kauzatologiya* sohasi o'ziga xos yo'nalish maqomiga erishganligi izohlangan;

o'zbek tilshunosligida fe'ning orttirma nisbati, buyruq-istak mayli kategoriyalari, shuningdek, buyruq gap va sabab ergash gapli qo'shma gap kabi qurilmalarning o'rganilishi morfologik hamda sintaktik reja asosida amalga oshirilgan, ammo ular kauzativlik jihatdan tekshirilmagan, mazkur ishda esa bu tushunchalarning kauzativizatsiyaning ish mexanizmlaridan biri ekanligi dalillanib, ular ifodasi orqali yuz berayotgan vaziyat kauzator, kauzant va konsekvent munosabatlariga tayanishi aniqlangan;

fe'ning orttirma nisbati, buyruq-istak mayli, shart mayli shakllari kauzativ derivatsiyada kauzaoperatorlar vazifasini bajarishi, kauzaoperandga tirkalib kelayotgan fe'ning orttirma nisbati shakli ko'rinishidagi kauzaoperatorlar qo'shaloq holda kelganda, kauzatorlar soni ortib, kauzativ qurilmaning konstanta (kauzativ vaziyatdagi holat) ko'rsatkichi ham o'sib borishi dalillangan;

to'lig'icha kauzativ vaziyatga tayangan makromatnlar ham shakllanishi mumkinligi o'z aksini topgan va kauzativlik derivativ jihatdan tadqiq etilgan;

kauzativlikning voqelanishida analitik vositalarning faqat Yevropa tillarida emas, balki turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida ham, azaldan o'z ichki xususiyatlari zahirida to'laqonli ravishda shakllanganini ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilishi, xulosalarning qat'iyligi, shuningdek, tadqiqot yo'nalishi va tadqiqot metodlari, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan muhim ilmiy xulosalar va umumlashmalar kelgusida shu

sohada yaratiladigan yangi ilmiy ishlarning vujudga kelishida nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Ishning amaliy ahamiyati oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida, filologik yo'nalishdagi institutlarda «Tilshunoslik», «Umumiy tilshunoslik», «Matn lingvistikasi», «O'zbek tili sintaksisi», «Lingvistik tadqiqot metodlari» fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanish hamda shu fanlardan ma'ruzalar o'qish, amaliy, seminar mashg'ulotlari olib borish, maxsus kurslar o'tishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kauzativ qurilmalar sintaktik derivatsiyasini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tobe komponenti mazmuniga ko'ra shart, to'siqsizlik, natija ifodalovchi murakkab sintaktik qurilmalar, o'zbek ertak va dostonlarida uchraydigan kauzativ qurilmalarning tahlili orqali olingan xulosalardan F1-FA-0-43429, FA-F1, G002 «Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish» mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasining nazariy qismida foydalanilgan (O'zR FA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2021-yil 15-oktabrdagi 17.01/236-son ma'lumotnomasi). Natijada xalq og'zaki ijodi namunalarini kauzaderivativ rejada sintaktik, semantik, pragmatik jihatdan tahlil etishga erishilgan;

qadimgi qabilalar ijodiy mahsuli bo'lgan piktografik yozuv asosidagi matnlarda totemlar tasviri bilan ifodalangan kauzativ qurilmalar tahlili xulosalaridan FA-F1-005 «Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish» mavzusidagi fundamental ilmiy loyihasining nazariy qismida foydalanilgan (O'zR FA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2021-yil 15-oktabrdagi 17.01/236-son ma'lumotnomasi). Natijada qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini o'rganishda kauzativlikka asoslangan qadimgi matnlarning tadqiqi alohida o'rin egallashi aniqlangan;

sabab, natija, undash ma'nolarini ifodalovchi sintaktik qurilmalar hamda fe'ning buyruq mayli, ortirma nisbati shakllari, kauzator, kauzant, konsekvent munosabatlari, mikro- va makrokauzativ qurilmalarning derivativ voqelanishi xususidagi natijalardan Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-1-UK-Tempus-JPCR Aston Universiti DeTEL «Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masrers Programmes» loyihasining amaliy qismida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2021-yil 9-noyabrdagi 2834/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur loyiha doirasida olib borilgan tadqiqotlarning tahlil qismida sabab, natija, undash ma'nolarini ifodalovchi sintaktik qurilmalar hamda fe'ning buyruq mayli, ortirma nisbati shakllari kauzativ derivatsiyaning ish mexanizmlarini tashkil etishi aniqlandi. Ushbu natijalardan magistratura talabalari uchun tashkil etilgan onlayn kurslarda o'quv materiali sifatida foydalanilgan;

makromatn qamrovida ham kauzativizatsiya vaziyati yuzaga kelishi mumkinligi va bunda faktivlik hamda permissivlik holatlari tahlili natijasidan 561624-ERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: «O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish» nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasining amaliy qismida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2021-yil 9-noyabrdagi 2835/30.02.01-son ma’lumotnomasi). Natijada kauzativ qurilmalar sintaktik derivatsiyasi xususidagi ilmiy nazariyaning o‘zbek tili materiallari asosida ilk bor yoritilishi bilan tilshunoslikning mazkur sohasini xalqarolashtirishda katta hissa qo‘shilgan;

zamonaviy tilshunoslikda aloqa vositalarining belgilari semiotika bo‘limida o‘rganilishi, insonning belgiga bo‘lgan munosabati esa pragmatik omillar nuqtayi nazaridan tekshirilishi, bu kauzativlikning kommunikativ jarayon bilan chambarchas bog‘liq ekanligi haqidagi tahliliy fikrlar va nazariy xulosalardan I-204-4-5 «Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish» nomli innovatsion tadqiqot loyihasining nazariy qismida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2021-yil 9-dekabrdagi 3331/30.02.01-son ma’lumotnomasi). Natijada ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratishni o‘rganishda, axborot-kommunikatsion texnologiyasining taraqqiy etishida struktur tilshunoslik metodlaridan derivatsion metod yetakchilik qilishi asoslangan va u kauzativ derivatsiya to‘g‘risidagi nazariy fikrlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 7 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 21 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta ilmiy maqola, ulardan 2 tasi xorijiy jurnallarda, 3 ta monografiya va 7 ta tezis xalqaro to‘plamlarda chop ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan. Tadqiqotning hajmi (kirish, xulosalar va adabiyotlar ro‘yxatidan tashqari) 210 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obyekti aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Kauzativ ma'no va uning tilshunoslikda o'rganilishi holati**» deb nomlangan birinchi bobida kauzativlik tushunchasining faylasuflar, mantiqshunoslar hamda tilshunoslar tomonidan o'rganilishi xususida so'z boradi va, o'z navbatida, ushbu bob ikki paragrafga bo'linadi. Birinchi paragraf «**Sabab va oqibat munosabatlarining klassik davrda o'rganilishi**» deb nomlanadi. Lingvistik adabiyotlarda «*kauzatsiya*» haqida gapirilganda, ushbu terminning lotincha «*causa*» so'zidan olingani va «*sabab*» ma'nosini ifodalashi, harakatning bajarilishi uchun sabab, qo'zg'ash ma'nosiga ega bo'lishi aytiladi¹. Kauzativlik tilshunoslikda aynan shu nuqtayi nazardan o'rganiladi hamda kauzativ vaziyat tahlilida sabab va oqibat ma'nolari bilan bog'lanadi. Bunga misol qilib sabab va natija ergash gapli qo'shma gaplar, undash va majburlash ma'nosidagi gaplar, fe'ling orttirma nisbati shakllarining shu termin ostida keng ma'noda o'rganilayotganini aytishimiz mumkin. Ana shularni e'tiborga olgan holda, tadqiqot ishimizda tilshunoslikning kauzal munosabatlar talqini masalasi bilan shug'ullanuvchi sohasini *kauzatologiya* deb nomlashga qaror qildik. Kauzatologiya sohasi tarixiy jihatdan shakllanib, tilshunoslik fanida o'rganilguniga qadar ham ancha yo'lni bosib o'tdi. Buddashunos olim V.G.Lisenkoning ta'kidlashicha, buddaviylik ta'limoti zamirida (miloddan avvalgi 1-ming yillik o'rtalari) qadimgi Hindistonda *pratitya-samutpada* (o'zaro bog'liqlik asosida shakllanish) nazariyasiga asos solindi. Mazkur nazariya sabab va oqibat munosabatlarini falsafiy jihatdan talqin etib, undan saboq beruvchi dunyodagi eng birinchi *sutra* (yo'l, ta'limot) edi².

Davrlar o'tishi bilan sabab va oqibat munosabatlari nazariyasi falsafa hamda mantiqshunoslikda keng o'rganila boshlandi va mazkur fanlarda asosiy kategoriya sifatida o'rin oldi. Falsafada sababiyat mohiyatini izohlash xususidagi dastlabki qarashlar Arastu tadqiqotlarida o'z ifodasini topadi. U materiyaning mohiyati uning o'zida deyish bilan birga, shu mohiyatni bilish uchun sababiyat qonuniyatini yaratadi³. Sabab va oqibat haqidagi mukammal mulohazalar talqini sharq mutafakkirlari tomonidan ham ilgari surilgan bo'lib, biz uning izohini buyuk allomalarimiz asarlaridan topamiz. Jumladan, Abu Ali ibn Sino «Tib qonunlari» da shunday deydi: «Sabablar, keltirib chiqaradigan narsalariga nisbatan, turli holatlarda bo'ladilar. Ko'pincha, sabab bitta bo'lsa ham, turli vaqtlarda turli kasalliklarni (oqibatlarni) keltirib chiqaradi»⁴. Jahon madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan qomusiy olim Abu Nasr Forobiy ham sabab va oqibat haqida mulohaza yuritib, unga: «Shartli hukmning birinchi qismi asos (sabab) bo'lib, ikkinchisi – bu oqibat», - deb baho bergan edi⁵. Keyinchalik, mazkur kategoriya haqida yevropalik

¹ Qarang: Xojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –Toshkent: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2002, 47-b; Розенталь Д.Э.,Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. –М: Просвещение,1985.-С.94; Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов.–Назрань: Пилигрим, 2010.-С.144;

² Qarang: Новая философская энциклопедия.Том III//Пратитья-самутпада(Лисенко В.Г.).-М.: Мысль, 2010. -С.327-328.

³ Qarang: Аристотель. Метафизика (Перевод с греческого П.Д.Первова и В.В.Розанова). –М.:Институт философии, теологии и истории св.Фомы, 2006.-С.37-39.

⁴ Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. I жилд. -Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993, 32-b.

⁵ Аль - Фараби. Логические трактаты.–Алма-ата: Наука, 1975.-С.289.

mumtoz faylasuflardan F.Bekon, D.Yum ham o'z mushohadalarini asarlarida batafsil bayon etib o'tdilar¹. Shunday qilib, sabab va oqibat munosabatlarini ifodalovchi kauzal ma'no materiya harakatining barcha formalarida o'z aksini topadi, shu jumladan, tilshunoslik sohasida ham u muhim omillardan biri bo'lib gavdalanadi. Ana shu tarzda sababiyat tushunchasi falsafa va mantiqdan andaza olgan holda lingvistika sohasiga ham qadam qo'ydi.

Ushbu tushuncha bugungi kunda lingvistika sohasida ham keng ko'lamda o'rganilmoqda. Sabab va oqibat munosabatlari talqini tilshunoslarda til falsafasiga asos solgan atoqli nemis mutafakkiri V.fon Gumboldt ta'limoti orqali qiziqish uyg'ota boshladi. «Siyosat, san'at va ilm-fanning hozirgi holatiga nazar tashlasak, ularning asrlar davomida sayqal topishi asosida sabab va oqibat munosabatlarining uzun zanjiri yotganini ko'ramiz», -degan edi Vilgelm fon Gumboldt «Tillar tuzilishining farqi va uning insoniyatning ma'naviy rivojlanishiga ko'rsatgan ta'siri» nomli asarida². Grammatikada sababiyat haqidagi dastlabki mulohazalar rus tilshunoslari N.I.Grech, A.X.Vostokov, I.I.Davidov, F.I.Buslayevlarning³ tadqiqotlarida ifodalandi. Shunday qilib, kauzativlik tushunchasining lingvistika sohasiga kirib kelganining va uning tilshunoslar tomonidan ham tadqiq etilganining guvohi bo'lamiz.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi «**Kauzativlikning zamonaviy tilshunoslikda tadqiq etilishi**» deb nomlanib, unda zamonaviy tilshunoslarning kauzativ vaziyat haqidagi ilmiy qarashlari tahlil qilinadi. Zamonaviy tilshunoslikda kauzativlik xususida tilshunos olimlardan A.Meye, L.Tenyer, Y.D.Apresyan, N.D.Arutyunova, G.A.Zolotova, A.B.Letuchiy, I.A.Melchuk, Y.Y.Kordi, G.G.Silnitskiy, A.P.Chudinov, S.V.Shustova va boshqalar fikr va mulohazalarini aytib o'tdilar. Mazkur mavzu yuzasidan turkiy tillar materiallari asosida ham amalga oshirilgan yirik monografik tadqiqot ishlari borligini ko'rishimiz mumkin⁴. Lekin bu haqda o'zbek tili materiallari asosida, L.I.Sadullayevaning maqolasidan tashqari, biror bir tadqiqot ishi mavjudligini kuzatmadik (Bu maqola o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida yozilgan)⁵. To'g'ri, tilshunosligimizda sabab ergash gapli qo'shma gap, buyruq gap, fe'ning ortirma nisbati shakllari kabi tushunchalar keng tadqiq qilingan bo'lsa-da, ular kauzativlik nuqtayi nazaridan izohlanmagan. Kauzatologiyada kauzativlikni voqelantirayotgan har bir elementning tildagi va nutqdagi o'rni, ularning semantik aspekti, *kauzator*, *kauzant*

¹ Qarang: Антология мировой философии в четырех томах. Том II.-М.: Мысль, 1970.-С.192.

² Гумбольдт В.фон. Избранные труды по языкознанию.-М.: Прогресс, 2000.-С.47.

³ Bu haqda qarang: Гречъ Н.И. Практическая русская грамматика. -Санктпетербургъ: въ типографіи Императорскаго Санктпетербургскаго воспитательнаго дома, 1827; Востоков А.Х. Русская грамматика. -Санктпетербургъ: въ Типографіи И.Глазунова, 1831; Давыдов И.И. Опытъ общесравнительной грамматики русскаго языка. -Санктпетербургъ: изданный вторымъ отдѣленіемъ Императорской Академіи Наукъ, 1853; Буслаев Ф.И. Опыт исторической грамматики русскаго языка. Часть I. Этимология. -М.: въ Университетской типографіи, 1858.

⁴ Bu haqda qarang: Абдиев Т.К. Конструкции с каузативными глаголами в киргизском языке. -Бишкек: Манас, 2009; Валиева Л.Г. Каузальность в татарском литературном языке.-Казань: ИЯЛИ, 2015; Тажибаева С.Ж. Способы выражения каузальных отношений в казахском языке//Автореф. дис. докт. филол наук.-Новосибирск, 2004.

⁵ Qarang: Sadullayeva L.I. Typological category of causative voice forms in Uzbek and English languages (Типологическая категория форм каузатива в узбекском и английском языках)//Сопоставительная лингвистика, № 6, 2017.

va *konsekvent* (xulosa) tushunchalarining munosabatlari derivativ jihatdan o'rganiladi. Aksariyat ishlarda kauzativlik tushunchasi semantik, leksik, morfologik, analitik nuqtayi nazardan tekshirilgan va kauzativlikda bir shaxsning (buyuruvchining) ta'siri bilan boshqa shaxs tomonidan (bajaruvchi tomonidan) amalga oshirilgan harakatning sababi izohlangan. Bizningcha, kauzatsiyaning faqat sabab ma'nosi bilan cheklab qo'yilishi maqsadga muvofiq emas. Zero, bir shaxsning (buyuruvchining) ta'siri bilan boshqa shaxs tomonidan amalga oshiriladigan harakat orqali faqat sabab ma'nosi emas, balki maqsad, natija, shart, undash, buyruq, iltimos, da'vat etish kabi ma'nolar ham ifodalanishi mumkin. Bu haqda I.A.Shoroxova fikr bildirar ekan, kauzativlik tushunchasi «*bahona*», «*asoslash*», «*undash*», «*holat*», «*munosabat*», «*daraja*» kabi ma'nolarni ifodalashini ham ta'kidlaydi¹.

T.G.Xazagerov kauzativ fe'llar yasama ekanligi haqidagi fikrni qo'llab-quvvatlaydi, lekin bu yasaliş o'ziga xos yasaliş hisoblanishini aytadi. Kauzativlar ot va sifat so'z turkumlari asosida yasalişini mumkinligini ham izohlab o'tadi: *везти-возить* (tashimoq-tashitmoq), *отрезветь-отрезвуть* (hushiga kelmoq-hushiga keltirmoq), *обезлюдеть-обезлюдить* (odamsiz bo'lib (huvillab) qolmoq-odamsiz bo'lib (huvillatib) qoldirmoq) kabi².

Aytish kerakki, masalaga bunday yondashuv, turkiy tillarga (ayrimlarini hisobga olmaganda) xos emas. Chunki turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida fe'l yasovchi qo'shimchalar bilan kauzativ ma'no ifodalovchi, orttirma nisbatni hosil qiluvchi, qo'shimchalarning chegarasi aniq sezilib turadi. Lekin qorachoy-bolqor tilida fe'lning orttirma nisbatini hosil qiluvchi qo'shimchalari so'z yasovchi affikslar sifatida talqin qilinadi. Masalan, B.A.Musukov «Морфологическая деривация глаголов в карачаево-балкарском языке» nomli doktorlik dissertatsiyasda qorachoy-bolqor tilida *-t*, *-dir*, *-ar* kabi fe'lning orttirma nisbati qo'shimchalari fe'l yasash uchun xizmat qilishini ta'kidlaydi: *бил-«знать» – билдир-«сообщать»*; *бит-«расти» – битдир-«выращивать»*³. Bizningcha, B.A.Musukovning fikri bilan qo'shilish qiyin, zero, olim keltirgan misollarda turkiy tilda yangi so'z yasalgan emas. M.G.Simulovning tadqiqot ishida chuvash tilida kauzativlik maxsus affikslar bilan hosil bo'lishi va bu agglyutinativlashgan kauzativlik ekanligi aytiladi. Bunda *-t*, *-lat(-let)* kabi kauzativ affikslar sifat so'z turkumidan kauzativ fe'l yasashi ta'kidlanadi: *ăuă* (iliq) – *ăuăm* (ilit), *илемлĕ* (go'zal) – *илемлет* (go'zallashtir), *вăрăм* (uzun) – *вăрăмлат* (uzaytir) kabi⁴. Ko'rinadiki, chuvash tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lsa-da, kauzativlikning hosil bo'lishi nuqtayi nazaridan olib qaralganda, mazkur holat o'zbek tilidagidan keskin farqlanadi. Chunki o'zbek tilida *iliq* so'zi fe'ldan yasalgan sifat hisoblanadi

¹ Qarang: Шорохова И.А. Семантика каузативных глаголов в русском и польском языках//Дис. канд. филол. наук. –Челябинск, 2007.-С.19.

² Qarang: Хазагеров Т.Г. Каузативность: статус и эволюция средств выражения в русском языке// Филологический вестник Ростовского государственного университета, №1, 1998. -С.24.

³ Qarang: Мусуков Б.А. Морфологическая деривация глаголов в карачаево-балкарском языке// Автореф. дис. докт. филол. наук. –Нальчик, 2011.-С.17.

⁴ Qarang: Сымулов М.Г. Способы выражения каузативных отношений в разноструктурных языках (на материале английского и чувашского языков)//Автореф. дис. канд. филол. наук. –Чебоксары, 2006.-С.8-9.

(*ili+q*), chuvash tilida esa tub sifatni ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, o'zbek tilida orttirma nisbat qo'shimchasi (kauzativ affiks) fe'l o'zagiga qo'shiladi (*ili+t*).

Bugungi kunda jahon tilshunosligida kauzativlik tushunchasi morfologik kauzatsiya, analitik kauzatsiya, leksik kauzatsiya, semantik kauzatsiya kabi turlarga bo'lib tadqiq qilinarkan, deyarli barcha ishlarda morfologik kauzatsiya bilan analitik kauzatsiya hodisalari bir-biridan farqlab o'rganilmoqda¹. Masalan, «*побуждать*», «*заставлять*», «*разрешать*» kabi fe'llar analitik kauzatsiyani hosil qiluvchi vositalar, turk tilidagi *imzala –imzala-t*, *göster – göster-t*, *icmek – ic-ir-mek* kabi fe'lning orttirma nisbati shakllari esa morfologik kauzatsiyani ro'yobga chiqaruvchi unsurlar sifatida talqin qilinmoqda². Morfologik tomondan yordamchi so'zlar (ba'zan mustaqil so'zlar), ohang analitika tushunchasi bilan bog'lanarkan, kauzativ ma'no ham sanab o'tilganlarning barchasi bilan bemalol ifodalanaveradi. Shunday ekan, kauzativlikning analitik vositalar bilan ifodalanishini morfologiya sohasidan alohida o'rganilishida lingvistik ma'no yo'q deb hisoblaymiz. Bizningcha, kauzativlikning analitik vositalar bilan hosil bo'lishini morfologik kauzatsiyaning bir turi sifatida tadqiq qilish to'g'ri bo'ladi.

Sh.Rahmatullayev «Hozirgi adabiy o'zbek tili» nomli darsligida fe'lning orttirma nisbati shaklini izohlab, kauzativlik tushunchasiga juda yaqin fikrni o'rinni aytib o'tadi: «Orttirma shaklning eng muhim belgisi shuki, sintaktik qurilmaga tashqaridan bajaruvchi ega qo'shiladi: shuning uchun ham bunday shakl *orttirma* deb nomlanadi. Tashqaridan qo'shiladigan bajaruvchi ega mavjud bajaruvchi egani odatda vositasiz to'ldiruvchiga aylantiradi. Sintaktik qurilmadagi bunday o'zgarish, avvalo, to'ldiruvchini boshqarmaydigan o'timsiz fe'llardan yasaliashida ochiq ko'rinadi: *Singlim yig'ladi. Akam singlimni yig'latdi*»³. Shu o'rinda olimning «*to'ldiruvchini boshqarmaydigan o'timsiz fe'llar*», – degan jumlasida ustida mulohaza yuritib ko'rishga to'g'ri keladi. Chunki fe'lning jumla tarkibida ohanrabo vazifasini bajarishini va shu bois jumlaning boshqa komponentlari u orqali boshqarilishini L.Tenyer ilmiy dalillab bergan edi. Agar yuqoridagi *Singlim yig'ladi* tarzidagi tayanch strukturani derivatsion jihatdan nutqda kengayishi mumkin bo'lgan holatiga nazar tashlasak, *yig'ladi* fe'lining nutqiy vaziyatning birgina o'rnida to'ldiruvchini boshqarishini kuzatsa bo'ladi: *Singlim yig'ladi. Singlim ho'ngrab yig'ladi. Singlim uyda ho'ngrab yig'ladi. Singlim ukam bilan uyda ho'ngrab yig'ladi*. Mazkur jumlaning derivatsion tarixidan oxirgi hosilaning operatori vazifasida vositali to'ldiruvchi (*ukam bilan*) kelayotgani ko'rinib turibdi. Boshqacha aytganda, *ukam bilan* so'zi uchinchi darajali aktant vazifasini o'taydi va fe'l orqali boshqariladi.

Aksariyat ishlarda kauzativlik tushunchasi grammatik kategoriya sifatida talqin etiladi. Biz esa kauzativlikning grammatik kategoriya sifatida tadqiq qilinishini maqsadga muvofiq deb hisoblamaymiz. Bizningcha, kauzativlik tushunchasi, birinchidan, tillarni biror bir morfologik tipga (flektiv, amorf,

¹ Bu haqda qarang: Длугош А.М. Английский аналитический каузатив со служебным глаголом GET//Автореф.дис.канд.филол.наук: –Киев, 1980; Цуй Ван, Бочина Т.Г. Каузативная конструкция в русском и китайском языках//Филологические науки, №3, 2014.-С.7-12.

² Qarang: Аматов А.М., Филимонов Н.Г. Каузативные аффиксы в современном английском языке//Научные ведомости, № 6, 2012.-С.35.

³ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. -Toshkent: Universitet, 2006, 167-b.

agglyutativ kabi) kirishini ko'rsatmaydi. Ikkinchidan, kelishik shakllari kabi so'zlarni bir-biriga bog'lashga ham xizmat qilmaydi. Shu bois, kauzativlikni grammatik ma'no ifodalovchi vosita deb o'rganish to'g'ri bo'ladi. Rus tilshunosi E.Y.Gordon ham bu haqda so'z yuritganida haqiqatni aytgan edi: «Kauzativlikni grammatik kategoriya deb bilish noo'rin, zero, kauzativlik ma'no ifodasi o'zining doimiy ko'rsatkichlariga ega emas»¹.

E.Y.Gordon ta'kidlaganidek, kauzativlik grammatik kategoriya emas, albatta, lekin ushbu tushunchani ifodalaydigan doimiy ko'rsatkichlari yo'q deb xulosa chiqarish, bizningcha, maqsadga muvofiq emas. Chunki kauzativlikning tillarda turli vositalar bilan ifodalanishining o'zi ham uning doimiy ko'rsatkichlari mavjudligidan dalolat beradi. Masalan, *sanskritda: janati (tug'iladi) – jan-ay-ati (tug'diradi) – fleksiya (markerli kauzativ); rus tilida: уме́ть – убо́ть – suppletiv kauzativ; o'zbek tilida: ko'rdi – ko'r-sat-di – postfiksli kauzativ(markerli); fransuz tilida: Je ferai écrire une lettre au directeur par Jean (Men Janni direktorga maktub yozishga majburlayman) – analitik kauzativ*. Shunday ekan, kauzativlik tushunchasining doimiy ko'rsatkichlari bor deb bimalol aytsa bo'ladi.

S.J.Tajibayeva lingvistik kompleksda o'z mavqeyiga ega bo'lgan kauzal konstruksiyalarning ichida sabab, natija, maqsad, shart ma'nosi bilan bog'langan polipredikativ gaplarning turkiyshunoslikda, jumladan, qozoq tilida muhim ahamiyat kasb etishini ilmiy dalillab beradi. Uning ishida kauzativlik hodisasi semantik kategoriya sifatida yoritiladi. S.J.Tajibayevaning kauzativlikni semantik kategoriya deb e'tirof etishi, bizningcha ham, maqsadga muvofiq. Lekin S.J.Tajibayeva bu o'rinda kauzativlikni grammatik ma'no ifodalovchi vosita sifatida semantikaga daxldor ekanligini izohlaganda to'g'ri bo'lar edi. Zotan, asosiy semantik kategoriyalar jumlasiga *ismlar, predikatorlar, predmet funktoirlari, gap va logik terminlar* kiradi².

Rus tilshunoslari V.P.Nedyalkov va G.G.Silnitskiyning «Типология каузативных конструкций. Морфологический каузатив» nomli monografiyalaridagi ilmiy qarashlarini o'qir ekanmiz, permissiv kauzativ haqida aytilgan quyidagi fikrni kuzatamiz: «Permissiv kauzatsiyada o'zgarish sodir bo'lishining asosiy sababchisi kauzatsiyalanuvchi subyekt hisoblanadi, kauzatsiyalovchi subyekt esa o'zgarish sodir bo'lishi vaziyatida ish-harakatning bajarilishiga yo ruxsat beruvchi, yo to'sqinlik qiluvchi rolini bajaradi»³. Agar olimlar aytganidek, permissiv kauzatsiyada kauzatsiyalovchi subyekt o'zgarish sodir bo'lishiga (harakat bajarilishiga) to'sqinlik qilishi yoki uning amalga oshishiga yo'l qo'yishi (xayrixohlik bildirishi) mumkin bo'lsa, bu holatni faktiv kauzatsiyada ham bimalol kuzatish mumkin. Masalan, olimlarning faktiv kauzatsiyaga misol qilib keltirgan «Я велел ему придти» jumlasini olaylik. Bunda ham buyruq bergan kishi o'z buyrug'ini bekor qilishi mumkin-ku. Natijada

¹ Гордон Е. Я. Каузативные глаголы в современном русском языке//Автореф. дис. канд. филол. наук: -М.,1981. -С.5.

² Bu haqda qarang: Ивлев Ю.В. Логика//Логика и язык. Язык как знаковая система. Семантические категории выражений языка.<http://www.hi-edu.ru/e-books/xbook718/01/part-003.htm#i155> (Sahifaga 07.12.2020 da murojaat etildi).

³ Недрялков В.П., Сильницкий Г.Г. Типология каузативных конструкций. Морфологический каузатив/Под ред. А.А.Холодовича. -Л.: Наука, 1969. -С.28.

ma'lum bir harakat bajarilishiga to'sqinlik qilgan bo'ladi. Shu bois, bizningcha, terminlar izohidan kelib chiqqan holda, soddagina tarzda faktivlikda ish-harakat bajarilishi yakunida o'zgarish sodir bo'ladi, permissivlikda esa ijozat berish ma'nosi yuzaga chiqadi, deb aniqroq misollar keltirish kerak edi, xolos.

V.S.Xrakovskiyning «Каузативная деривация (особый случай)» nomli maqolasida ta'kidlanishicha o'timsiz (bir aktantli) yoki o'timli (ikki aktantli) fe'lning argumentli strukturasiqa kauzator (agens yoki sababchi) vazifasini o'tovchi yangi (tashqi) qatnashuvchi qo'shiladi va u birinchi sintaktik aktantning (eganing) mavqeyini egallaydi. Natijada, avval mazkur pozitsiyani egallagan ishtirokchi ikkinchi sintaktik aktantning (vositasiz to'ldiruvchining) o'rniga o'tadi. U bu vaziyatni «*aktantli derivatsiya*» deb ataydi. Maqolaning ba'zi o'rinlarida esa uni «*applikativ derivatsiya*» deb ham tushuntiradi. Masalan: *bola o'tirdi – Umar bolani o'tqizdi*¹. Bizningcha, bu vaziyatning «*applikativ derivatsiya*» deb izohlanishi to'g'ri bo'ladi. Chunki aplikativ model sintaktik derivatsiya hodisasining muayyan ish mexanizmlaridan biri sifatida voqelanadi. Garchi, V.S.Xrakovskiyning o'zi operatorga derivatsiyaning mutlaq egasi deb baho bergan bo'lsa-da², mazkur maqolasida bunday terminlarni iste'molga kiritmaydi. Olimning «*адресат*», «*бенефактив*», «*малефактив*», «*инструмент*» kabi terminlarni qo'llashi esa ishni ko'proq semantik sintaksis sohasiga moyil qilib qo'yadi. U holda maqoladagi materiallarni semantik derivatsiya doirasida tahlil qilish kerak edi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Kauzativ qurilmalarning mazmuniy–sintaktik maqomi**» deb nomlanib, unda kauzal jarayon semantik derivatsiya qonuniyati asosida tahlil qilinadi. Mazkur bob ikki paragrafqa bo'linadi. «**Kauzativ derivatsiyada pragmatik omillar**» nomli birinchi paragrafda kauzativlik tushunchasi pragmatolingvistik nuqtayi nazardan o'rganiladi. Bunda kauzativ muloqot vaziyati, A.Vejbiskaya ta'kidlaganidek, a) so'zlovchi va adresat o'rtasidagi munosabatlar; b) so'zlovchining harakatlarga munosabati; c) adresatning so'zlovchining irodasiga bo'ysunishi kabi sharoitlarga bog'liq holda tekshiriladi³, shuningdek, aloqa-munosabat vaziyatining ma'lum sabablari va natijalari ham tahlil qilinadi. Zotan, kommunikativ vaziyatning turli holatlarida turli ifoda shaklidagi kauzal ma'nolar (do'q, buyruq, iltimos, nasihat, undash kabi) voqelanadi. Masalan:

Sohibqiron motamda qolgan kelini Xorazm malikasi Xonzoda xonimga atab ikki sandiq sovg'a-salom tayyorlatishni buyurdi. Birinchi sandiqqa tilla isirg'a-yu bilakuzuklar, yoqut ko'zli shohonaklar-u kumush kamarlar, zar taqinchoqlar-u marjonlar, oltin zebigardon-u tillaqoshlar, qashqar baldog'i-yu oybaldoqlar, ko'zmunchog'-u tumorlar, Yaman aqiqi, javohir-u zabarjad, la'l-u yoqut, durri Adan, gavhar-u marvaridlar solinsin....

¹ Qarang: Храковский В.С. Каузативная деривация (особый случай)//Международная конференция, посвященная 50-летию Петербургской типологической школы: материалы и тезисы докладов. -СПб., 2011. -С.184-192.

² Qarang: Храковский В.С. Трансформация и деривация//Проблемы структурной лингвистики. -М.: Наука,1973. -С. 496-497.

³ Qarang: Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. -М.: Наука, 1997. -С.90.

Podshoh kelini sandiqlarga qarab quvonib ketdi, shahlo ko'zlari nurlandi (Muhammad Ali. Ulug' saltanat. Ikkinchi kitob).

Keltirilgan misolda muloqot vaziyatida sodir bo'layotgan buyruq shaklini taqozo etuvchi kauzal nutq voqelanmoqda. Nutqning *lokutiv* («*locutio*» lotincha «*suhbat*», «*nutq*», «*talaffuz*» degani bo'lib, so'zlovchi bevosita nimani aytayotgan bo'lsa, o'sha nazarda tutiladi)¹ tomoni orqali podsho keliniga sovg'alar in'om etayotganligi anglashilib turibdi. Har qanday jumlaning lokutiv xususiyatidan tashqari uning *illokutiv* («*in+locutio*» lotincha «*suhbat ichida*», «*nutq ichida*» degan ma'noni anglatib, so'zlovchining aytayotgan fikri orqali nima demoqchi ekanligi (ichki tub ma'no) nazarda tutiladi)² sifati ham mavjud bo'ladi. Yuqoridagi berilgan misolda ham matnning lokutiv belgisi orqali sovg'a berish ifodasi kuzatilsa, illokutiv rejasi orqali esa kauzallikning sabab ma'nosi bilan mushtarakligi sezilmoqda. Bu vaziyatda kauzallikning ikki xil ma'no turiga duch kelamiz. Birinchidan, lokutivlikda *buyruq*, ikkinchidan, illokutivlikda esa *sabab*, chunki podshoning kelinini sovg'alar bilan siylashiga Xonzoda xonimning turmush o'rtog'ining, podshoning o'g'lining, o'limi sabab bo'lgan. Yuqorida ta'kidlanganlardan tashqari, kauzativ harakatlar ta'sirining samaradorligiga, kauzativ reaksiyaning semantikasiga qarab turli aloqaviy vositalar unsurlari kauzativ konstruksiyalarni shakllantiruvchi belgilar sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Bunga misol qilib, birinchi navbatda, til belgilarini aytishimiz mumkin, ikkinchidan, piktogrammalar (shu jumladan, yo'l harakati qoidalari belgilari), imo-ishoralar, Morze alifbosi kabi signal vositalarini ham semiotik belgilar sifatida ta'kidlab o'tishimiz kerak:

«SOS»—(Jonimizni qutqaring!), «⚡»—(Hamma meni eshitsin!), «⚡⚡»—(Radiogrammani qabul qiling!).

Ko'rib turganimizdek, Morze alifbosiga asoslanuvchi kodlangan signallarda *buyruq* va *undash* shaklidagi keskin kauzal ma'nolar izohi o'z ifodasini topmoqda. Zero, pragmatika semiotikaning bo'limi sifatida nutqiy vaziyatda til belgilarining (aloqa vositalari belgilarining) funksiyasini o'rganuvchi soha hisoblanadi³.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi «*Kauzasemantik derivatsiya*» deb nomlanadi. Semantik derivatsiya til belgilari ifodalanuvchi tomonining kengayishi natijasida hosil bo'ladigan semantik derivatlarni taqozo etadi. Bu jarayonda kauzal ma'noning shakllanishini ham kuzatamiz, zero, mazkur vaziyatda bir-biriga mushtarak bo'lgan sababiyatlar ma'nosi kengayishi voqelanadi. Shu bois derivatsiyaning bu turini *kauzasemantik derivatsiya* deb atamoqdamiz:

Qiyom vaqti. Og'ilda sigir ma'raydi. Uni podaga yubormaydilar: bir ko'zi ko'r bo'lganidanmi podadan qaytishda shoxi bilan konkaning oynasini sindirib qo'ygan. Bobom qattiq xafa bo'lib, bir so'mmi, yarim so'mmi jarima to'lagan (Oybek. Bolalik).

¹ Qarang: Большой энциклопедический словарь. Языкознание. –М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. –С. 412

² Qarang: o'sha lug'at, o'sha bet.

³ Qarang: Большой энциклопедический словарь. Языкознание. –М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. –С.389.

Keltirilgan misol abzas shaklidagi makromatn bo‘lib, uning sintaktik derivatsiyasida tayanch struktura muhim rol o‘ynaydi, chunki makromatn shakllanishida uning barcha operandlari tayanch strukturaning ma‘no salmog‘iga tayanadi¹. Mazkur makromatnda tayanch struktura vazifasini uning ikkinchi operandi bajaradi. Ammo berilgan matnning kauzasemantik derivatsiyasida uning uchinchi operandi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki kauzal ma‘noning hosilasi aynan shu operandning matnning boshqa muchalari bilan kauzatsiyalanishning mantiqiy bog‘lanishi natijasida ro‘yobga chiqqan hisoblanadi:

1) *Uni podaga yubormaydilar* (oqibat);

2) *bir ko‘zi ko‘r bo‘lgan* (sabab) – *podadan qaytishda shoxi bilan konkaning oynasini sindirib qo‘ygan* (oqibat) – birinchi kauzaderivat;

3) *podadan qaytishda shoxi bilan konkaning oynasini sindirib qo‘ygan* (sabab) – *Bobom qattiq xafa bo‘lib, bir so‘mmi, yarim so‘mmi jarima to‘lagan* (oqibat) – ikkinchi kauzaderivat;

4) *Bobom qattiq xafa bo‘lib, bir so‘mmi, yarim so‘mmi jarima to‘lagan* (sabab) – *Uni podaga yubormaydilar* (oqibat) – uchinchi kauzaderivat.

Ko‘rib turganimizdek, makromatnning kauzasemantik derivatsiyasi uch bosqichli kauzal hosilaga tayanadi. Bunda «*sigir*» so‘zining bir yo‘la ikki vazifani bajarayotganligini kuzatamiz: birinchidan, abzas tarkibiy qismlarini sintaktik derivatsiya jarayonida faollashtiruvchi unsur (sintaktik operator), ikkinchidan, kauzativ munosabatga olib keluvchi kauzator. Zero, makromatn kauzaoperandlari ham aynan ana shu vosita orqali semantik tamoyil ostida sababiyat qurshovida voqelana boshlaydi. Boshqacha aytganda, kauzator (*sigir*) subyektga ta‘sir etib, uni ma‘lum bir harakatni bajarishga undamoqda. Ushbu vaziyatda sabab va oqibat munosabatlarining yuzaga chiqishida kauzasemantik distributsiya ham muhim rol o‘ynaydi. Natijada, makromatn maqomidagi murakkab kauzativli qurilma (MKQ) shakllanadi. Mazkur semantika ijrochi bilan kauzatsiyalanuvchining funksiyasiga bo‘g‘liq bo‘ladi. Bunda predikat mazmunining ham ahamiyati kattadir, chunki «*yubormaydilar*» fe‘li «*bobo*» ni umumiy kauzatsiyani bajaruvchisi darajasiga ko‘taradi. Boshqacha aytganda, *sindirdi* fe‘li ifodalanuvchisi *yubormaydilar* fe‘li ifodalanuvchisiga semantik planda kauzatsiyalanish jarayonida funksiya beradi. «*Uni podaga yubormaydilar*» jumlasidan so‘ng birinchi kauzaoperator (*sigir*) passiv holatga o‘tadi. Kauzasemantik derivatsiyaning hosilasida ikkita kauzator mavjud bo‘lib, ularning biri *tashqi* (*sigir*), ikkinchisi esa *ichki* (*bobo*) hisoblanadi. Ammo «*sigir*» so‘zi bilan belgilanayotgan kauzaoperator kauzativatsiya nuqtayi nazaridan passivlashgan bo‘lsa-da, sintaktik reja tamoyiliga ko‘ra makromatn muchalarini o‘zaro munosabatga kirituvchi asosiy unsur (operator) sifatida o‘z funksiyasini yo‘qotmaydi.

Tadqiqot ishining uchinchi bobi «**Morfosintaktik kauzativ derivatsiya**» deb nomlanib, unda morfemalar, ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmalarining kauzal ma‘noni ifodalashdagi applikativ funksiyasi o‘z ifodasini topadi. Uchinchi bobning birinchi paragrafida «**Affiksial kauzaderivatsiya**» mavzusi yoritiladi. Ushbu faslda

¹ Qarang: Турниёзов Н.К., Турниёзов Б.Н., Турниёзова Ш.Н. Ўзбек тили деривацион синтаксиси. -Тошкент, 2011, 146-b.

kauzativlikning affiksial morfemalar orqali voqelanishi xususida soʻz boradi. Talaygina tillardagi kabi (ruanda, eskimos, buryat, venger, kechua, turk, tojik, duala, nivx va boshqalar) oʻzbek tilida ham kauzativlik ifodasini beruvchi affiksial morfemalar mavjud boʻlib, ular orqali biror shaxs tomonidan, maʼlum sababga koʻra, kimnidir qandaydir harakatni bajarishga undash maʼnosi borligi kuzatiladi. Bunday qoʻshimchalar jumlasiga feʼlning orttirma nisbati *-t,-dir(-tir),-giz(-kiz),-qiz(-gʻiz), -gaz (-kaz,-qaz),-ir, -ar,-iz,-sat*, oʻzlik nisbati *-n,-l,-in,-il*, buyruq-istak mayli *-(a)y, -(a)yin,-gin(-kin,-qin), -(i)ng,-sin,-(a)ylik,-(i)nglar* shakllarini kiritishimiz mumkin. Havola qilinayotgan qoʻshimchalardan buyruq-istak mayli shakllari biror lingvistik adabiyotda kauzativlik ifodasini beruvchilar sirasiga kiritilmagan.

Prof. I.A.Melchuk kauzativlikni hosil qiluvchi qoʻshimchalar bilan nisbat shakllarini farqlash kerakligini taʼkidlaydi va quyidagi fikrni bildiradi: «Anʼanaviy tavsiflarda kauzativ nisbatlardan biri sifatida qaraladi. Biroq bunday yondashuv xatodir. Ularning bir-biridan farqi quyidagilarda koʻrinadi: 1) kauzativ maʼlum bir maʼno ifodasini beradi, nisbat esa hech qanday maʼno bilan bogʻlanmaydi; 2) kauzativ va nisbat mavjud boʻlgan tillarda kauzativ soʻz yasashga, nisbat esa soʻz oʻzgartirishga xosdir; 3) nisbat shakli bir soʻzda ikki va undan ortiq marta qoʻllanmaydi, kauzativ esa qoʻllanishi mumkin. Masalan (arab, fransuz, ruanda tillari bilan bir qatorda turk tilidan ham misol keltirilgan): *piş* (feʼl oʻzagi), *piş+ir* (kauzativ), *piş+ir+t* (ikki karra kauzativ); *öl* (feʼl oʻzagi), *öl+dür* (kauzativ), *öl+dür+t* (ikki karra kauzativ)»¹. Nisbat va mayl shakllarining grammatik maʼno ifodalashga xizmat qilishi izoh talab qilmaydi. Shu bois olimning: «Nisbat shakllari hech qanday maʼno bilan bogʻlanmaydi»,-degan fikriga qoʻshilib boʻlmaydi. Ammo masala tavsifiga turk tili grammatikasi yuzasidan yondashadigan boʻlsak, darhaqiqat, ushbu tilda feʼlning orttirma nisbatini hosil qiluvchi qoʻshimchalarini feʼldan feʼl yasovchilar, deb taʼrif berilganini koʻramiz. Vaholanki, chuvash tilidagi singari, turk tilida orttirma nisbat affikslari yangi lugʻaviy maʼnoni yuzaga keltirmaganligining guvohi boʻlamiz: *bilmek – bildirmek, yapmak – yaptirmak* kabi². Binobarin, soʻz yasalishi deganda grammatik maʼno ifodasini emas, balki yangi lygʻaviy maʼnoning yuzaga chiqishini tushunamiz. Bundan tashqari, G.Glisonning «Deskriptiv tilshunoslikka kirish» nomli asarida turk tilidagi feʼlga birikuvchi qoʻshimchalardan orttirma nisbati shakli soʻz yasovchi emas, balki kauzativ deb koʻrsatilgan. Demak, turk tilidagi bunday qoʻshimchalarni soʻz yasovchilar deb boʻlmas ekan³. Chuvash tilini eʼtiborga olib, *илемлĕ* (goʻzal) – *илемлет* (goʻzallashtir) kabi kauzativ formalar soʻz yasaydi-ku, degan taqdirda ham, bu vaziyatda bir affiksning bir yoʻla ikki vazifani oʻtayotganini inobatga olish kerak boʻladi. Bundan tashqari, orttirma nisbat shakllari kauzativ maʼnoni ifodalashga xizmat qiladi va bir feʼl oʻzagiga ketma-ket qoʻshila oladi.

¹ Мельчук И. А. Курс общей морфологии. Том II. Часть вторая: морфологические значения. -Москва-Вена: Язык русской культуры, 1998. -С. 385-387.

² Вu haqda qarang: Э. Гениш. Грамматика турецкого языка. Том 2.-М.: Изд-во ЛКИ, 2008. -С.205.

³ Qarang: Глисон Г. А. Введение в дескриптивную лингвистику. -М.:Иностранная лит-ра, 1959. -С.164.

Ta'kidlash kerakki, so'z o'zagiga fe'l yasovchi affiks qo'shilishi natijasida *derivatema* hosil bo'ladi:

– *Kimsanboy kelishi bilan to'yni boshlab yuboraveringlar* (O'.Hoshimov. Saylanma. II jild).

Keltirilgan misolda *bosh+la* shaklidagi yasama fe'l berilgan bo'lib, u leksik derivatsiya mahsuli hisoblanadi. Mavjud hosilani derivatema deb ataymiz. Fe'lning lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo'shimchasini biriktirgan formasi esa *grammema* hisoblanadi:

Oxiri, qaytg'onimda Termizda kutib olasizlar, deya Samarqandga jo'natdi (Muhammad Ali. Ulug' saltanat. To'rtinchi kitob).

Berilgan misolda *jo'na+t* tarzidagi grammema mavjudligini ko'ramiz. Shunga ham e'tibor berish kerakki, agar yasama so'zga kauzativ shakl qo'shilsa, mazkur hosila derivatemaligicha qoladi: *bosh+la+t* kabi. Mavjud holat N.K.Yakubovaning affiks morfemalarning o'zak yoki so'zshakl asosiga nisbatan o'rini ko'rsatishi bo'yicha ikkinchi pozitsiyasiga to'g'ri keladi, ya'ni bu vaziyatda affiks morfemaning affiksdan keyin kelishi nazarda tutiladi¹. Ammo ushbu so'zning kauzativlik ko'rinishi uning asosiy *konstantasi* (*k* – kauzativ situatsiyada qator o'zgarishlarga uchraydigan doimiy holat yoki xulosa) hisoblanadi², chunki yasovchi qo'shimchadan keyin birikayotgan orttirma nisbat shakli uning grammatik ma'noning ma'lum turiga xoslanganligini belgilab keladi. Shu bois uni *kauzatemala* desak to'g'ri bo'ladi deb o'ylaymiz. O'z navbatida, konstanta mavqeyi situatsiya va ishtirokchilar bilan belgilanadi. Kauzativ situatsiyaning kengayishi natijasida ishtirokchilar soni ham orta boshlaydi va keyingi situatsiya avvalgisiga nisbatan makroxarakterli bo'lib qoladi. Natijada situatsiya va ishtirokchilarni belgilovchi morfologik vositalar (kauzativ affiksalar morfemalar) qurshovida derivatsiya vujudga keladi. Buni *kauzaderivatsiya* deb ataymiz. Masalan, *bosh+la+t*, *quyuq+lash+tir*, *g'iyq+illa+t* so'zlaridan ikkinchi va uchinchisining konstanta ko'rsatkichi (*k*) uchga teng: 1-kauzativ muhit (C–kauzativ situatsiya), 2-kauzatsiyalovchi shaxs (S–subyekt), 3-kauzatsiyalanuvchi individ (I). Ammo birinchi so'zning (*bosh+la*) nutqda buyruq shaklidagi holatini e'tiborga olsak, uning konstantasi beshga teng bo'ladi. Zero, fe'lning *boshla* formasi orqali ham da'vat etish ma'nosi borligi kuzatiladi. Qiyoslang: (*Sen*) *boshla*–birinchi individ dastlabki situatsiyada kauzatsiyalanyapti; (*Sen*) *boshlat* –II shaxs yana kimnidir keyingi makrosituatsiyada (avvalgisiga nisbatan) kauzatsiyalashi kerak. Mazkur vaziyatda u $k=C_1+S \rightarrow I_1+C_2 \rightarrow I_2$ ga teng bo'ladi. Lekin *quyuq+lash*, *g'iyq+illa* kabi fe'llarga nisbatan formulaning bu ko'rinishini qo'llay olmaymiz, chunki ular shaxsga qarata ishlatilmaydi (badiiy jonlantirishni hisobga olmasa, albatta).

Kauzativ muhitning konstanta ko'rsatkichi natijali, maqsadli, shartli kabi ma'no ifodalari bilan kelishi mumkin: 1. ...*utsa* (yutsa) *tegaman*, *utdirsa* (yutqizsa) *so'yaman* (Kuntug'mish)–(konstantasi shartli bo'lgan kauzasituatsiya). 2. *Afandi amirni xijolatdan chiqazmoqchi bo'ldi* (Afandi latifalari)–(konstantasi maqsadli

¹ Bu haqda qarang: Якубова Н. К. Правила формального синтеза узбекских словоформ//Система и уровни языка. -М.: Наука, 1969. -С.141.

² Bu haqda qarang: Холодович А. А. Типология каузативных конструкций. Морфологический каузатив. -Л.: Наука, 1969. -С.8-9.

bo'lgan kauzasituatsiya). 3. *Xonzoda begim uning musavvir ham ekanligini bilib qolib, o'zining suratini chizdirgan* (P.Qodirov. Yulduzli tunlar)–(konstantasi natijali bo'lgan kauzasituatsiya).

Affiksatsiya usulida kauzativlik ifodalanganda kauzal ma'noning *faktiv* hamda *permissiv* turlari yuzaga keladi. Faktivlikda kauzativ situatsiyada kauzator faol bo'ladi:

...(Mirzo Shohruh) *sulton Mahmud ko'ksig'a minub, uyg'otib, ...sulton Zaynobbiddin qoshig'a kelturdi* (Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma).

Permissivlikda kauzator kauzantning biror harakatni amalga oshirishiga rozilik beradi yoki to'sqinlik qiladi. Bunda kauzant faol hisoblanadi:

Xolmatjon...Zaychenkoga murojaat qildi: –Ruxsat eting, o'rtoq general, men boray! General o'ylab turib: –Ruxsat, -dedi (S.Ahmad. Ufq).

Uchinchi bobning «*Analitik kauzaderivatsiya*» deb nomlanuvchi ikkinchi paragrafida ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari orqali yuzaga chiqayotgan kauzativ vaziyat izohlanadi. Kauzativlikning analitik vositalar bilan voqelanishi ayrim tilshunoslar tomonidan sintaktik plandagi kauzatsiya deb qaralmoqda¹. Bu vaziyatda analitik formaning bir gap bo'lagi vazifasida kelishi e'tiborga olinmoqda². Masalan, *Men uni haydab yubordim* jumlasida *haydab yubordim* ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi kauzallikning ifodalanishida analitik vosita bo'lib, u kesim vazifasida kelmoqda. Lekin xuddi shu vazifani *haydatdim* fe'li ham bajarishi mumkin. U holda, nega orttirma nisbat qo'shimchasi bilan hosil bo'lgan kauzativlikni sintaktik planda o'rganmaymiz? Zotan, bunda fe'lning gapdagi vazifasi emas, balki uning morfologik kategoriyasi inobatga olinadi. Sunday ekan, *haydab yubordim* so'zining ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi ekanini nazarda tutib, uni morfologik kauzatsiyaning analitik turi deb o'rganish to'g'ri bo'lmaydimi? Kauzativlikning ifodalanishida biz qo'zg'ash, ta'sir etish ma'no ifodalarini yuzaga chiqaruvchi ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalarini, qo'shma va ayrim mustaqil fe'llarni analitik vosita sifatida talqin qilmoqdamiz. Bunda, albatta, ohang ham analitik tushuncha sifatida ishtirok etadi:

Shahar sovetiga meni yetaklab borib, nomimga qaror chiqazdirib berdi (S.Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim).

Keltirilgan misolda *bermoq* fe'li yordamida shakllangan analitik vosita orqali yuzaga chiqayotgan kauzativ munosabatning faktiv rejada amalga oshayotganini ko'ramiz. Bunda subyekt bir yo'la ikki individni faollashtirmoqda. Birinchidan, u avvalgi individga ta'sir etib, uni bir punktga yo'naltirmoqda, ikkinchidan, keyingi individga ta'sir etib, unga ma'lum bir amalni bajartirmoqda. Yuzaga chiqayotgan kauzal munosabat *yetaklab borib, chiqazdirib berdi* shaklidagi analitik kauzatemalar orqali amalga oshmoqda. Bunda *yetaklab borib* analitik kauzatemasidan bir punktdan ikkinchi punktga yo'nalganlik harakatining to'liq tugallanganligi va bu vaziyatda kauzator kauzantni ma'lum bir joyga yurishga

¹ Bu haqda qarang: Баклагова Ю. В. Аналитический каузатив с глаголом *help* в английском языке: категориальная парадигма конструкции *helpsomebody (to) dosomething*//Филологические науки. Вопросы теории и практики.-Тамбов: Грамота, №12(78), 2017.-С.91-93.

² Bu haqda qarang: Большой энциклопедический словарь. Языкознание. -М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. -С.31.

undagani anglashilmoqda. Analitik kauzatemalarning o'ziga xos tomoni shundaki, ikki fe'lning birikishi sintaktik derivatsiya hosilasini taqozo etsa, yetakchi va ko'makchi fe'l qurshovida voqelanayotgan ma'no esa semantik derivatsiya mahsulini beradi: *yetaklamoq, bormoq* – operand; *-b* – operator; *yetaklab bormoq* – mikrosintagmatik munosabat; *ma'lum bir punktga yo'nalganlik harakatining davomiyligi* – semantik derivat; *ta'sir etish, qo'zga'sh ma'nosini beruvchi ikki fe'lning birikuvi* – analitik shakldagi kauzatem. *Chiqazdirib berdi* shaklida voqelanayotgan kauzaderivativ situatsiyada kauzatorning bir individga ta'sir etishi oqibatida yuzaga chiqayotgan harakat ifodasi natijasi o'zga shaxs uchun qaratilganligi aks etmoqda. Zero, kauzator bir individ uchun ikkinchi individni kauzatsiyalamoqda va buning oqibatida kauzal harakatning to'la yakunlanganligi ifoda etmoqda. Bu mazmun yetakchi va ko'makchi fe'lning analitik formada yaxlitlanganligi tufayli ro'yobga chiqmoqda. Ushbu vaziyatda analitik shaklning yetakchi qismida garchi *-az, -dir* ortirma nisbat affikslari o'rin olgan bo'lsa-da, kauzativlikning mazkur shaklini affiksatsiya usulida voqelangan kauzativlik deb bo'lmaydi. Lekin bu holat qo'shimchalarning analitik kauzativatsiyada ahamiyati muhim ekanligini inkor etmaydi. Zero, kauzal ma'no aynan ana shu qo'shimchalar tufayli o'z ifodasini topadi. Bunday oxirgi o'lchov yetakchi va ko'makchi fe'l munosabatini taqozo etgani bois biz uni analitik deb yuritamiz.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi «**Makrosintaktik qurilmalar kauzativli derivatsiyasi**» deb atalib, «**Sodda gap va murakkab sintaktik qurilmalar kauzativli derivatsiyasi**» hamda «**Makromatn kauzativli derivatsiyasi**» nomli paragraflarni o'z ichiga oladi. Birinchi paragrafda sodda gap hamda mikromatn maqomida keluvchi murakkab sintaktik qurilmalarning kauzativ ma'no qurshovidagi sintaktik derivatsiyasi jarayoni yoritiladi. Integrativ xususiyati til birliklarini uyushtirishda namoyon bo'luvchi va mustaqil holda xabar ifodasini beruvchi nutqning eng kichik birligi gap hisoblanadi. Bu, albatta, insonning o'z fikri integratsiyasi uchun paradigmatic qatordan kauzativ vaziyat taqozo etayotgan elementlarni tanlab, aktuallashtirishi bilan bog'liq bo'ladi. Integratsiya deganda esa fikr ifodasi davomida nutq muchalarining yaxlitlanishini tushunamiz. Ushbu jarayonda ular avval avtonom holda uyushib, so'ng umumiy plandagi monolitlikni kasb etadi. Shu bois sintaktik paradigmada ularning integratsiyalashuvi bir-biridan farqlanadi. Masalan, gapning integratsiyasi til belgilarining faollashuviga tayansa, murakkab sintaktik qurilmalarda gaplar integrant vazifasini o'taydi. O'z navbatida, makromatn gap, MSQ, abzaslar asosida shakllanadi. So'zlashuvdagi til va nutq birliklarining bunday faoliyati murakkab iyerarxik jarayon bo'lib, uni ilmiy jihatdan tadqiq etish derivatsiyani taqozo etadi. Zotan, inson nutqi asl mohiyatiga ko'ra derivatsiya demakdir. Derivatsiya keng qamrovli bo'lib, aplikativ, transformatsion, bevosita ishtirokchilar metodlari kabi ish mexanizmlari bilan faoliyat yuritadi. Masalan: *Echkimiz...tipirchilab odamni bezor qilardi. Shunda biron tamiz uning orqa oyoqlarini ushlab turishga majbur bo'lardik* (O'.Hoshimov. Saylanma. II jild).

Ushbu misoldagi fikr nutq egasi aytgan holati bo'yicha berilmoqda. Biroq so'zlovchi fikrini boshqa ko'rinishda ham yetkazishi mumkin. Buni transformatsion metod orqali o'rganamiz. Nutq birliklari elementlarining bir-biri

bilan o‘zaro birikishi applikativ modelga tayanilgan holda tadqiq qilinadi. Ularning mantiqiy munosabati e‘tiborga olinganda esa semantik derivatsiya qonuniyatiga amal qilinadi (Bu mantiqiy-semantik applikatsiya ham deyiladi). Ushbu birliklar qanaqa elementlardan tarkib topganini bilishimiz uchun bevosita ishtirokchilar metodiga murojaat etamiz. Jumladan, keltirilgan misolda analitik kauzatemalar sintaktik jihatdan alohida tub struktura maqomida kelmoqda. Biroq so‘zlovchi nutqini boshqa ko‘rinishda (transformada) voqelantirsa, sodda gaplarning birinchisida tub struktura mavqeyini egallagan analitik kauzatemalar (*bezor qilardi*) derivatsiya tarixi uchinchi bosqichining operatorini *-(a)yotgan* tarzidagi sifatdash shaklini) biriktirib kelayotgan operandiga aylanadi. Qiyoslang: *Echkimiz...tipirchilab odamni bezor qilardi. Shunda birortamiz uning orqa oyoqlarini ushlab turishga majbur bo‘lardik.– (Shunda) birortamiz tipirchilab odamni bezor qilayotgan echkining orqa oyoqlarini ushlab turishga majbur bo‘lardik.* Mazkur misol tahlili transformatsiyaning *kontaminatsiya* usulida amalga oshirilgan bo‘lib, unda ikki elementar gap asosida murakkab shaklli mustaqil gapning voqelanishini kuzatamiz. Aytib o‘tganimizdek, birinchi gapdagi analitik kauzatemalar sifatdash kategoriyasiga ko‘chib, *funksional transpozitsiya* hodisasini vujudga keltirmoqda. Bunda transpozitsiya hodisasi transformatsion jarayonning shakllanishi uchun vosita bo‘layotganini ko‘ramiz. Transformatsiyaga uchragan gapning mazmuniga putur yetmaganligi sababli, kauzativ qurilma kauzatorining mavqeyi ham o‘zgarmaydi, jumladan, misoldagi «*echki*» so‘zi kauzatorligicha qoladi. Zero, kauzativlik tushunchasi semantik hodisadir. Kontaminatsiya holatiga o‘tgan ushbu murakkab shaklli gapning (kauzativ qurilmaning) tarkibiy qismini tashkil etuvchi bevosita ishtirokchilarini tahlil qilsak, algoritimga tayanuvchi, biri ikkinchisi bilan uzviy sintaktik aloqada bo‘lgan elementlar majmuyi mavjudligini kuzatamiz:

$$1. P=GN+GV; GN=N_{1(X-kauzator)}+d; GV=N_{2(Y-kauzant)}+V_{(Z-faktivlik (jismoniy ta'sir))}$$

$$2. P=GN+GV; GN=d_1+N_{1(Y)}; GV=d_{2(X)}+d_3+N_2+N_3+V.$$

$$\text{Transforma} \rightarrow P=GN+GV; GN=d_1+N_{1(Y)}+d_2+N_2+d_3+d_{4(X)}; GV=d_5+N_3+N_4+V.$$

Mazkur gapning applikativ modeli semion va episemionlar asosida kengaya boradi. Faqat bunda gapning generatori sifatida *adnektor* birlamchi vazifa bajaradi. Adnektor deganda har qanday jumlaning shakllanishi uchun operator-semion funksiyasini o‘tovchi qismni tushunamiz. Adnektor modal operator bo‘lib, u fe‘l bilan ifodalanadi va faoliyat qanday amalga oshirilishini belgilab beradi¹. Gapning derivatsion voqelanishida tub struktura ushbu vazifani o‘taydi, zotan u sintaktik struktura sathida xabarning mag‘zini tashkil etuvchi predikat vazifasini bajaradi. Ana shu tarzda kauzativlikning sintaktik reja asosida voqelanishini kuzatishimiz mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari, kauzaderivativ jarayonda kauzativ klauzalar dekauzativ klauzalardan valentlik darajasining yuqoriligi bilan farq qiladi:

1. *Bir marotaba lola navlarini sanashlarini buyurdim* (Bobur. Boburnoma) – Men buyurdim, ularga buyurdim, sanashlarini buyurdim – fe‘l valentligi 3 ga teng;

¹ Bu haqda qarang: Жеребило Т.В. Генератор фраз/Словарь лингвистических терминов.-Назрань: Пилигрим, 2010.-С.70; <https://codenlp.ru/stati/stiv-andreas-modal-ny-e-operatoriy.html>.

aksesivlik darajasi (biriktirib oluvchi xususiyati) baland; X – kauzator, Y – kauzant, Z– konsekvent munosabati.

2. *Dadamiz Azimjon amaki bilan suhbatlashar edilar* (Sherkon Qodiriy. 37-xonadon) – Dadamiz suhbatlashar edilar, Azimjon amaki bilan suhbatlashar edilar – fe'l valentligi 2 ga teng.

Teng komponentli MSQ komponentlari alohida tub strukturalarning mavqeyiga tayanadi. Ushbu tub strukturalar teng komponentli MSQ sintaktik derivatsiyasida har biri mustaqil gaplarni taqozo etuvchi operandlarning mazmuniy asosini tashkil etadi hamda bu tub strukturalar zahirida avval tayanch strukturalar, so'ngra MSQning umumiy shakli voqelanadi:

Bag'dod xalifasi An-Nosirning Chingizxon ila olib borgan maxfiy mulqotlari o'z mevasini bergan, yovuz mo'g'ullarning yuz o'ttiz minglik qo'shini saltanat hududlariga allaqachon bostirib kirdi (N.Qobul. Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich).

MSQ sintaktik derivatsiyasida har biri mustaqil gaplarni taqozo etuvchi operandlarni ko'ramiz. Ushbu operandlarning birinchisining tub strukturasi turg'un birikma shaklidagi (*mevasini bergan*) vosita bilan, ikkinchi operandning tub strukturasi esa *bostirib kirdi* tarzidagi analitik kauzatemaga orqali ifodalanmoqda. Mazkur derivatsion jarayonda shunga e'tibor berish kerakki, MSQ ikkinchi komponentining tub strukturasi kauzativ bo'lganligi uchun mavjud mikromatnning umumiy tuzilishi ham kauzativ qurilma hisoblanadi. Zotan, MSQ operandlari sabab va oqibat mazmuniy munosabati qurshovida yaxlitlanib, umumiy planda qo'zg'ash harakatini voqelantirmoqda. Mavjud kauzal hukmning ijrosi esa MSQ keyingi komponentining tub strukturasi kuzatilmog'uda. To'g'ri, MSQ birinchi operandi alohida olinganda dekauzativ qurilma bo'lib, unda kauzativ munosabat o'z ifodasini topmagan. Ammo u ikkinchi tarkibiy qism bilan sintaktik munosabatga kirishgandan so'ng kauzativ tipdagi mikromatnning sababiyat mazmunidagi generator maydoni operandiga aylanadi. Buning oqibati esa, o'z navbatida, qo'zg'ash alomatiga ega bo'lgan ikkinchi generator maydon orqali yuzaga chiqadi. Natijada generator maydonlar halqasi yaxlitlanib, umumiy rejadagi murakkab sintaktik kauzativli qurilma (MSKQ) distributiv munosabat konnektori asosida vujudga keladi.

V.S.Xrakovskiy kauzativ qurilmalar sabab ifodalovchi qurilmalardan bir klauzadan iborat ekanligi bilan tubdan farqlanishini va ular ergash gapli qo'shma gaplarni emas, balki sodda gaplarni taqozo etishini, sabab ifodalovchi qurilmalardan farqli ravishda, kauzativ qurilmalar ko'psubyecktli bo'lishini, sabab ifodalovchi qurilmalar sabab, kauzativ qurilmalar esa oqibat situatsiyalarini qamrashini ta'kidlaydi¹. Olim fikrining isboti sifatida quyidagi misolni keltiradi: *Петров взял такси, потому что (он) опаздывал на работу*. Bizningcha, mazkur mulohazaga qo'shilish qiyin. Birinchidan, kauzativ qurilma oqibat, sabab ifodalovchi qurilma sabab bildiradi, deyish mantiqsizdir. Zotan, kauzativ qurilma deganda sabab va oqibat qurshovidagi konstruksiyani tushunamiz. Ikkinchidan,

¹ Храковский В.С. О соотношении причинных и каузативных конструкций//Ученые записки Петрозаводского государственного университета. Языкознание. Т.42, №3, 2020. -С. 64-70.

kauzativ qurilma sodda gapdan (klauzadan) iborat bo'ladi, deyish ham to'g'ri emas. Sabab ifodasi asosida shakllangan tobe komponentli MSQlar faqat bir subyektli bo'ladi, deb xulosa chiqarish masala tavsifini to'liq yoritib bera olmaydi. Masalan: *Bosmachilarni qiyratganimiz uchun komandirimiz o'ynab kelinglar, deb yubordi* (O'.Hoshimov. Saylanma. I jild).

Ko'rinib turganidek, keltirgan misolimiz *Biz, bosmachilar, komandir* kabi bir necha subyektini qamrab olgan sabab ifodasidagi tobe komponentli kauzativli MSQni taqozo etadi. Ba'zan, nutq vaziyatiga ko'ra, tobe komponentli MSQning operandi tasarrufidagi tub struktura yoki fe'lda orttirma nisbat qo'shimchasi ishtirok etsa ham, u kauzaoperator sifatida vazifa bajarmaydi. Bir qaraganda, bunday qurilma kauzativ bo'lib ko'rinsa-da, aslida, u dekauzativ hisoblanadi:

Habibulla aka otalari ishini qanday ixlos bilan davom ettirgan bo'lsalar, u kishining ishlarini o'g'illari Xondamir va Sherkon ham shunday davom ettirdilar (Sh.Qodiriy. 37-xonadon).

Ko'rinadiki, MSQning ikkala qismida ham orttirma nisbat affiksini olgan qo'shma fe'l shaklidagi bir xil analitik vosita mavjud bo'lib, mazkur vosita mikromatni kauzativ qurilma sifatida voqelantira olmayapti. Chunki bunda birinchi darajali aktant vazifasidagi referentlarning ish-harakatni bajarishni boshqa individga yuklagani kuzatilmaydi. Aniqrog'i, ular kauzator maqomiga erishmagan. Agar *davom etdi va davom ettirdi* fe'llarini alohida olib tahlil qilganimizda, morfologik planda ulardan orttirma nisbat qo'shimchasini olgani kauzativ hisoblanar edi. Ammo yuqoridagi misolda, garchi orttirma nisbat qo'shimchasini olgan analitik vosita qatnashayotgan bo'lsa-da, kauzator va kauzant munosabati anglashilmaydi. Shu bois, bunday qurilmalarni *kvazikauzativ (quasi-lotincha «go'yo, xuddi»)* deb ataymiz.

Ikkinchi paragrafda kauzativlikning makromatnda ifodalanishi xususida so'z boradi. Kauzal matnlar bir komponentli va ko'p komponentli kabi turlarga bo'lib tahlil qilinadi. Ammo bir komponentlilikni nisbiy tushunmoq darkor. Masalan, kauzal matn bir komponentli bo'lib shakllangandek ko'rinsa-da, aslida vaziyat buni taqozo etmaydi. Zotan, kauzativ jarayon X (kauzator) – Y (kauzant) – Z (konsekvent – semantik xulosa) tarzida voqelanar ekan, unda doim ko'pkomponentlilik alomati kuzatiladi. Jumladan, Hamza Niyoziy she'rlaridan birining nomi «Uyg'on» bo'lib, u shaklan bir komponentli matnga teng. Ammo unda direktiv kauzatsiya amalga oshayotganligi bois, «Sen uyg'on» tarzidagi kauzativatsiyani tushunamiz. Bundan tashqari, fe'ldan iborat bo'lgan buyruq ko'rinishidagi bir so'zli kauzativ matnlar tushlangan formada qo'llangani uchun kauzativ vaziyatda uch shaxsdan biri ishtirok etayotgani izoh talab qilmaydi. Shuning uchun bunday ko'rinishdagi matnlarni shartli ravishda bir komponentli deb izohlaymiz. Ikki yoki uch komponentli kauzativ matnlar jumlasiga «Yig'la, Turkiston», «Qalbingga quloq sol» kabi asarlar nomlarini kiritishimiz mumkin.

MSQlar shaklan katta bo'lishiga qaramay, muayyan matn muchasi hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni matn ichidagi mikromatn sifatida tahlil qilamiz:

Olloh ko'ngilga joylag'on niyatlarni ado etmak lozim. Niyatni ham O'zi ardoqlag'on bandalariga ravo ko'radur... Necha yildirki, Xitoyga safar qilmak

niyatidasen. Valiahd shahzoda Muhammad Sultonni atay Mo'g'uliston sarhadiga yubordingki, toki qal'ani mustahkamlasun, deb (M.Ali. Ulug' saltanat. To'rtinchi kitob).

Berilgan abzas shaklidagi makromatn tarkibiy qismlari uchta sodda gapni (dekauzativli qurilmalarni) va bitta tobe komponentli murakkab sintaktik kauzativli qurilmani tashkil etadi. Ushbu kauzativ qurilmaning tub strukturasi yaqin o'tgan zamon II shaxs birlikda tuslangan analitik kauzatemata formasidan iborat. Bunda kauzator tomonidan amalga oshirilayotgan kauzatsiyada kauzantning ma'lum bir obyektga yo'naltirilishi o'z ifodasini topmoqda. O'z navbatida, MSQning tobe qismida derivatemaga asoslangan kauzatemata (*mustahkam+la+sun*) yo'naltirish harakatining nima maqsadda amalga oshayotganini izohlab kelmoqda. Kauzal harakatning nima maqsadda amalga oshayotgani faqatgina kauzatemalar orqali yuzaga chiqmaydi, albatta. Ushbu ma'noning ifodasida sintaktik operatorlarning ham (*toki, deb*) ahamiyati katta.

Ba'zan nutq vaziyatida kauzativatsiyaning faktiv hamda permissiv turlarining bir matnda voqelanishini kuzatamiz:

*Mard Alpomish og'a, munda kelsang-chi,
Qaldirg'ochning bir so'zi bor ko'rsang-chi,
Erkakman, deb yuribsan jurtingda,
Boshingdagi to'pping menga bersang-chi!
O'z yoringdan qo'rqib yursang Qo'ng'irotda,
Sovutingni men ustima kiyayin,
Chovkar oting men ustiga minayin* (Alpomish).

Ushbu kauzal matnning kauzaderivativ shakllanishi ikki qismdan iborat bo'lib, uning boshlanish qismida kauzatorning faolligi kuzatiladi. Matnning so'nggi tarkibiy qismida kauzator kauzatsiyalanishi kerak bo'lgan referentga aylanadi. Ayni paytda, kauzaderivativ vaziyatning boshlanish qismidagi faktivlik o'z o'rnini permissivlikka bo'shatib berganligi bois kauzator va kauzantlarning ham roli almashadi. Bu esa mazkur jarayonda *substitutiv* kauzativatsiya amalga oshganligidan dalolat beradi. Bunda faktivlik fe'ning buyruq-istak mayli II shaxs birlikdagi qo'shimchasi *-gin* vazifasini o'tovchi II shaxsda tuslanayotgan shart mayli formasi *-sa* hamda unga birikib kelayotgan *-chi* yuklamasi ko'rinishidagi kauzaoperatorlar yordamida ifodalanmoqda. Permissivlik esa fe'ning buyruq-istak mayli I shaxs birlik formasidagi kauzaoperator bilan aks etmoqda. Shu bois kauzaderivatsiyaning mazkur shakli murakkab makrokauzasituatsiyani taqozo etadi. Matnning faktivlikka tayangan qismida *Alpomish* so'zi sintaktik operator maqomida kelayotgan bo'lsa, permissivlik ifodalayotgan komponentida *men* so'zi shu vazifani o'tamoqda. Ammo uning sintaktik jihatdan shakllanishi yagona tayanch struktura zamirida amalga oshmoqda. Bu funksiyani *Qaldirg'ochning bir so'zi bor ko'rsang-chi* shaklidagi kauzativ qurilma bajarmoqda. Ana shu tarzda makromatnda kauzativlikning voqelanishini kuzatamiz.

Shuni aytish kerakki, she'riy matnlar to'lig'icha kauzativ bo'lib shakllanishi mumkin. Ammo dostonlardan olingan kauzativ parchalar ma'lum bir matnning kauzativ komponenti hisoblanadi.

XULOSA

Tadqiqotimiz kun tartibiga qo'yilgan kauzativlik tushunchasi xususidagi muammolarning jahon tilshunosligida o'rganilishi holatini hamda kauzativ qurilmalarning derivatsion xususiyatlarini tadqiq etish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Lingvistik adabiyotlarda «*kauzatsiya*» haqida gapirilganda, ushbu terminning lotincha «*causa*» so'zidan olingani va «*sabab*» ma'nosini ifodalashi, harakatning bajarilishi uchun sabab, qo'zg'ash ma'nosiga ega bo'lishi aytiladi. Kauzativlik tilshunoslikda aynan shu nuqtayi nazardan o'rganiladi hamda kauzativ vaziyat tahlilida sabab va oqibat ma'nolari bilan bog'lanadi. Kauzativlik leksik, semantik, morfologik, sintaktik jihatdan tadqiq qilinar ekan, u lingvistikada o'ziga xos yo'nalish maqomiga erishdi. Ana shular e'tiborga olingan holda, tadqiqotimizda tilshunoslikning kauzal munosabatlar talqini masalasi bilan shug'ullanuvchi sohasi *kauzatologiya* deb nomlandi va u ilmiy asoslandi.

2. Tilshunosligimizda sabab ergash gapli qo'shma gap, fe'lning orttirma nisbati shakllari keng tadqiq qilingan bo'lsa-da, mazkur tushunchalar kauzativlik nuqtayi nazaridan izohlanmagan. Kauzatologiyada kauzativlikni voqelantirayotgan har bir elementning tildagi va nutqdagi o'rni, ularning semantik aspekti, *kauzator*, *kauzant* va *konsekvant* (xulosa) tushunchalarining munosabatlari derivativ jihatdan o'rganiladi.

3. Kauzatsiyaning faqat sabab ma'nosi bilan cheklab qo'yilishi maqsadga muvofiq emas. Zero, bir shaxsning ta'siri bilan boshqa shaxs tomonidan amalga oshiriladigan harakat orqali faqat sabab ma'nosi emas, balki maqsad, natija, shart, undash, buyruq, iltimos, da'vat etish kabi ma'nolar ham ifodalanadi.

4. Ayrim tilshunoslar qorachoy-bolqor, turk tillaridagi fe'lning orttirma nisbatini hosil qiluvchi qo'shimchalarni so'z yasovchilar deb izoh berishadi. Ammo ular keltirgan misollardan mazkur qo'shimchalarning, o'zbek tilidagi singari, faqat lug'aviy shakl hosil qiluvchilar sirasiga kirishiga amin bo'lamiz.

5. Kauzativlik qo'shimchasiga ega bo'lgan boshqa tillardagi singari o'zbek tilida ham kauzativlik ifodasini beruvchi affiksial morfemalar mavjud bo'lib, ular orqali biror shaxs tomonidan, ma'lum sababga ko'ra, kimnidir qandaydir harakatni bajarishga undash ma'nosi borligi kuzatiladi. Bunday qo'shimchalar jumlasiga fe'lning orttirma nisbati, o'zlik nisbati, buyruq-istak mayli shakllarini kiritamiz. Shunday ekan, turkiy tillardagi bunday qo'shimchalar kauzativ derivatsiya operatorlari hisoblanadi.

6. Affiksatsiya usulida kauzativlik ifodalanganda, kauzal ma'noning *faktiv* hamda *permissiv* turlari yuzaga keladi. Faktivlikda kauzativ situatsiyada kauzator faol bo'ladi. Permissivlikda kauzator kauzantning biror harakatni amalga oshirishiga rozilik beradi yoki to'sqinlik qiladi. Bunda kauzant faol hisoblanadi.

7. Kauzativatsiyada *konstanta* (*k*—kauzativ situatsiyada qator o'zgarishlarga uchraydigan doimiy holat yoki xulosa) mavqeyi situatsiya va ishtirokchilar bilan belgilanadi. Kauzativ situatsiyaning kengayishi natijasida, o'z navbatida, ishtirokchilar soni ham orta boshlaydi va keyingi situatsiya avvalgisiga nisbatan

makroxarakterli bo‘lib qoladi. Natijada, situatsiya va ishtirokchilarni belgilovchi morfologik vositalar (kauzativ affiksial morfemalar) qurshovida derivatsiya vujudga keladi. Bu jarayon *kauzaderivatsiya* deb ataladi. Kauzaderivatsiya hosilasi sifatida *kauzatemata* tarkib topadi.

8. Tilshunoslikda kauzativlikning analitik planda shakllanishi sintaktik kauzatsiya deb qaralmoqda. Bu vaziyatda analitik formaning bir gap bo‘lagi vazifasida kelishi e‘tiborga olinmoqda. Mazkur holat kauzativlikning sintaktik jihatdan yoritilishini to‘liq ochib bera olmaydi, zotan, sintaktik kauzativlik makroxarakterli bo‘ladi. Shuning uchun kauzativlikning analitik vositalar bilan ifodalanishini morfologik kauzatsiyaning analitik turi deb talqin qilish to‘g‘ri bo‘ladi.

9. Aksariyat ishlarda kauzativlik tushunchasi grammatik kategoriya sifatida talqin etiladi. Biz esa kauzativlikni grammatik ma‘no ifodalovchi vosita sifatida o‘rganilishini to‘g‘ri deb bilamiz. Chunki kauzativlik tushunchasi, birinchidan, tillarni biror bir morfologik tipga kirishini ko‘rsatmaydi. Ikkinchidan, kelishik shakllari kabi so‘zlarni bir-biriga bog‘lashga ham xizmat qilmaydi.

10. Kauzativlik pragmatik jihatdan o‘rganilganda, so‘zlovchi va adresat o‘rtasidagi munosabatlar, so‘zlovchining harakatlarga munosabati, adresatning so‘zlovchining irodasiga bo‘ysunishi kabi sharoitlarga bog‘liq holda tekshiriladi, shuningdek, aloqa-munosabat vaziyatining ma‘lum sabablari va natijalari ham tahlil qilinadi. Zotan, kommunikativ vaziyatning turli holatlarida turli ifoda shaklidagi kauzal ma‘nolar (do‘q, buyruq, iltimos, nasihat, undash kabi) voqelanadi.

11. Kauzativ harakatlar ta‘sirining samaradorligiga, kauzativ reaksiyaning semantikasiga qarab turli aloqaviy vositalar unsurlari kauzativ konstruksiyalarni shakllantiruvchi belgilar sifatida namoyon bo‘ladi. Bunga misol qilib, birinchi navbatda, til belgilarini kiritamiz, ikkinchidan, piktogrammalar (shu jumladan, yo‘l harakati qoidalari belgilari), imo-ishoralar, Morze alifbosi kabi signal vositalari ham semiotik belgilar sifatida kauzativlikni shakllantiruvchi unsurlar hisoblanadi.

12. Semantik derivatsiya til belgilari ifodalanuvchi tomonining kengayishi natijasida hosil bo‘ladigan semantik derivatlarni taqozo etadi. Bu jarayonda kauzal ma‘noning shakllanishini ham kuzatamiz, zero, mazkur vaziyatda bir-biriga mushtarak bo‘lgan sababiyatlar ma‘nosi kengayishini ko‘ramiz. Shu bois derivatsiyaning bu turini *kauzasemantik derivatsiya* deb ataymiz. Kauzatsiyaning bunday murakkab jarayonida *hodisalarning semantik* tahlili metodidan foydalanamiz. Hodisalarning kauzasemantik tahlili metodi aksariyat hollarda makromatnlarni tahlil qilishda qo‘l keladi.

13. Hodisalar derivatsiyasida ma‘lum bir matn sintaktik operatori matn tarkibiy qismlarini faollashtiruvchi unsur bo‘libgina qolmay, ba‘zan matn komponentlarini kauzativ munosabatga olib kiruvchi kauzator sifatida ham faoliyat yuritadi. Zotan, makromatn kauzaoperandlari aynan ana shu vosita orqali semantik tamoyil ostida sababiyat qurshovida voqelana boshlaydi.

14. Gapning applikativ modeli semion va episemionlar asosida kengaya boradi. Faqat bunda gapning generatori sifatida *adnektor* birlamchi vazifa bajaradi. Adnektor deganda har qanday jumlaning shakllanishi uchun operator-semion funksiyasini o'tovchi qismni tushunamiz. Adnektor modal operator bo'lib, u fe'l bilan ifodalanadi va faoliyat qanday amalga oshirilishini belgilab beradi. Gapning derivatsion voqelanishida tub struktura ushbu vazifani o'taydi, zotan u sintaktik struktura sathida xabarning mag'zini tashkil etuvchi predikat vazifasini bajaradi. Kauzal gaplar ham shu qonuniyat asosida shakllanadi. Bu esa kauzativlikning sintaktik rejada voqelanishidan dalolat beradi.

15. Teng komponentli MSQ komponentlari alohida tub strukturalarning mavqeyiga tayanadi. Ushbu tub strukturalar teng komponentli MSQ sintaktik derivatsiyasida har biri mustaqil gaplarni taqozo etuvchi operandlarning mazmuniy asosini tashkil etadi hamda bu tub strukturalar zamirida avval tayanch strukturalar, so'ngra MSQning umumiy shakli voqelanadi.

16. Kauzativ turdagi MSQning sintaktik derivatsiyasida tub strukturalarning ikkalasi yoki ularning bittasi kauzal shaklda bo'lishi mumkin. MSQ shakllanishining ikkala holatida ham murakkab sintaktik kauzativli qurilma (MSKQ) tarkib topadi. Zotan, MSQ operandlari sabab va oqibat mazmuniy munosabati qurshovida yaxlitlanib, umumiy planda qo'zg'ash harakatini voqelantiradi.

17. Kauzaderivativ jarayonda kauzativ klauzalar dekauzativ klauzalardan valentlik darajasining yuqoriligi bilan farq qiladi.

18. Ba'zan nutq vaziyatiga ko'ra, tobe komponentli MSQning operandi tasarrufidagi tub struktura yoki fe'lda orttirma nisbat qo'shimchasi ishtirok etsa ham, u kauzaoperator sifatida vazifa bajarmaydi. Bir qaraganda, bunday qurilma kauzativ bo'lib ko'rinsa-da, aslida, u dekauzativ hisoblanadi. Zero, bunday qurilmalar *kvazikauzativ* maqomida turadi.

19. Kauzal matnlar bir komponentli va ko'p komponentli kabi turlarga bo'lib tahlil qilinadi. Ammo bir komponentlilikni nisbiy tushunmoq darkor. Masalan, kauzal matn bir komponentli bo'lib shakllangandek ko'rinsa-da, aslida vaziyat buni taqozo etmaydi. Zotan, kauzativ jarayon X (kauzator) – Y (kauzant) – Z (konsekvent – semantik xulosa) tarzida voqelanar ekan, unda doim ko'pkomponentlilik alomati kuzatiladi. She'riy matnlar to'lig'icha kauzativ bo'lib shakllanishi mumkin. Ammo dostonlardan olingan kauzativ parchalar ma'lum bir matnning kauzativ komponenti hisoblanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
ДОКТОРА НАУК (DSc) НА БАЗЕ НАУЧНОГО СОВЕТА PhD.03.
РАЗОВЫЙ 30.2019.Fil.60.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
ПРИ АНДИЖАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ

ТУРНИЯЗОВ БЕХЗОД НИГМАТОВИЧ

**СИНТАКСИЧЕСКАЯ ДЕРИВАЦИЯ КАУЗАТИВНЫХ
КОНСТРУКЦИЙ**

10.00.11 –Теория языка. Прикладная и компьютерная лингвистика.

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА (DSc) ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ
НАУКАМ**

Андижан - 2022

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Проблемы речи неразрывно связаны с реальным использованием языка, в котором человеческий фактор играет важную роль. Формирование сложной языковой системы также напрямую связано с мышлением человека. Если мы посмотрим на интерпретацию языковых проблем таким образом, мы увидим, что есть очень важные вопросы, которые необходимо решить. Например, сегодня актуальными стали исследования по интерпретации лингвистики речи. Кроме того, есть некоторые вопросы, связанные с законами внутренней системы языка, которые были проблематичными и до сих пор остаются проблемными. Одной из таких проблем является феномен *каузативности*, и эта концепция исследуется в нашем исследовании как в рамках законов внутренней системы языка, так и в области лингвистики речи.

Хотя в мировой лингвистике существует множество научных работ, посвященных феномену каузации, ни одна из них не затрагивает тему монографического исследования, означающего деривационные особенности этого понятия. Можно сказать, что статья по этому поводу есть только у В.С.Храковского. Настоящая диссертация представляет собой фундаментальную исследовательскую работу, которая теоретически освещает проявление каузации, связанной с процессом деривации. Кроме того, изучение каузативности впервые в узбекском языкознании имеет важное значение для нашего языкознания. Исходя из этого, мы можем доказать актуальность выбранной нами темы.

В узбекской лингвистике мы не наблюдали научных работ посвященных теме каузативации. Однако мы видим, что монография Р.Расулова «Ситуативные глаголы в узбекском языке и их облигаторные валентности» содержит ценную информацию, которая нам нужна. Поэтому, вдохновленные словами нашего Президента: «Новые знания, полученные в результате фундаментальных исследований, находят свое отражение в практической и инновационной разработке ученых»¹, мы выражаем свои научные взгляды на этот вопрос. Верно, что внутренние механизмы каузативации как побудительное предложение, сложноподчинённые предложения с придаточными причины, понудительный залог, повелительно-желательное наклонение глагола широко изучены в узбекской лингвистике. Однако эти материалы не охватываются каузативной связью. Следовательно, возникла необходимость в каузативном исследовании таких понятий, и мы решили назвать эту ветвь лингвистики *каузатологией*. Объект исследования каузатологии не ограничивается объяснением того, как образуется сложноподчинённые предложения с придаточным причины, или того, что считается формой понудительного залога глагола. В каузатологии исследуются роли каждого элемента, способствующего каузативности в языке и речи, их семантического аспекта, взаимосвязи между понятиями каузатор, каузант и консеквент (вывод) в плане деривации. Ведь с

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2017, -С.170.

деривацием связаны и законы внутренней системы языка, и проблемы лингвистики речи. Это, в свою очередь, один из важнейших и необходимых вопросов нашего языкознания.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит выполнению задач, освещённых в Постановлениях и Указах Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года» ПП-6097 от 29 октября 2020 года, «О мерах по развитию образования и науки в новый период развития Узбекистана» ПП-6108 от 6 ноября 2020 года, «О совершенствовании системы государственного управления в целях развития научной и инновационной деятельности» ПП-6198 от 1 апреля 2021 года, «О мерах по дальнейшему совершенствованию организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности Академии наук» УП-2789 от 17 февраля 2017 года, «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» УП-2909 от 20 апреля 2017 года, «О мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в проводимых комплексных реформах в стране» УП-2775 от 5 июня 2018 года, «О государственной политике в области науки и мерах по дальнейшему совершенствованию государственного управления в сфере инновационного развития» УП-5047 от 1 апреля 2021 года и в других нормативно-правовых документах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в республике. Диссертация осуществлялась в соответствии с приоритетным направлением развития науки и техники Республики I. «Формирование и реализация системы инновационных идей в социально-правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информированного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации¹. В рамках изучения проблем каузации исследовательские работы проводились в странах мира, в том числе в Кыргызско-Турецком университете имени «Манас» (Кыргызстан), Институте языкознания (Казахстан), Московском государственном педагогическом университете, Кубанском государственном университете, Пермском университете (Россия), le Collège de France, Университете Монпелье (Франция), Монреальском университете (Канада), Санта-Крус (США), Goethe-Universität Франкфурт-на-Майне (Германия), Институте иностранных языков Шенси (Китай).

